

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM ASOSLARI KAFEDRASI

“GAZLAMA TURLARI VA ULARDAN BUYUMLAR
TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI”
mavzusidagi
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5141600-boshlang'ich ta'lim, sport
va tarbiyaviy ish yo'nalishi
bitiruvchisi 4-kurs “A” guruh
talabasi Haydarova Malika

Ilmiy rahbar: p.f.n., dos.
M.Tilavova

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____sonli bayonnomasi « _____ » _____ 2012 yil

Buxoro – 2012

REJA

KIRISH

1-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF MEHNAT DARSLARIDA GAZLAMA TURLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

- 1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatish.**
- 1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishning mavjud ahvoli.**

2-BOB. BOSHLANG'ICH SINIF MEHNAT DARSLARIDA GAZLAMA TURLARI VA ULARDAN TURLI BUYUMLAR YASASHNING USUL VA VOSITALARI.

- 2.1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasash.**
- 2.2. Gazlama bilan ishlashda ko'rsatishlar, kuzatishlar va tajribalarning vazifasi.**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RĤIYXATI

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakllanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan islohotlar o'tkazilishi ta'lim-tarbiya tizimining butunlay yangilanishiga olib keldi. Ma'lumki, har bir jamiyatning ongli qatlami o'zining o'rinbosarlari bo'lgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi uchun qayg'uradi, g'amxo'rlik qiladi.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining islohoti "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida davlat tomonidan amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz aholisining aksariyat qismi sharqona musulmon diniga mansub mintaqada joylashganligi sababli, xalqning tafakkurida, dunyoqarashida ushbu g'oyalar hukmronlik qiladi. SHuning uchun, ta'lim-tarbiya tizimida o'tkaziladigan islohotlarda sharqona qadriyatlar, milliy-tarixiy meroslardan foydalanish o'ziga xos ustuvorlik kasb etgan. Bu haqda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning "Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari" deb nomlangan qismida ta'lim-tarbiya tizimining milliy g'oyalar asosida yangilanishda: "...ta'limning milliy yo'naltirilganligi – ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash ..." ga alohida e'tibor qaratilgan [2, – 44-b.].

Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining milliy asosda yangilanishi tabiiy zaruriyatdir. SHunday ekan, yoshlarni hayotga tayorlashning muhim sohasi hisoblangan mehnat va kasb tayyorgarligi ham o'z-o'zidan milliy asosda takomillashtirilishi lozim. YOshlarning mehnat va kasb tayyorgarligini milliy lashtirilishining negizi ushbu tizimning xalq hunarmandchiligi asosida yangilanishidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatish yoshlarni mehnat qurollari yordamida xom ashyodan turli mahsulotlar ishlab chiqarish va shunday kasblarning umumiy nomlanishi bilan tanishtirishdan iborat.

Prezidentimiz I.A.Karimovning 1997 yil 31 martdagi "Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni muhim ahamiyatga molik voqea hisoblanadi. Jumladan, ushbu farmonda shunday deyiladi: "...yoshlarni xalq san'ati ustalarining ko'nikmalariga o'qitib, o'rgatish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirishda amaliy yordam ko'rsatish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarining, respublika vazirliklari va idoralarining eng muhim vazifasi deb hisoblansin" [5]. Mazkur farmonga muvofiq, har yili xalq hunarmandchiligi sohalari va badiiy-amaliy bezak san'ati ustalarining ijodi, ish faoliyatlarini yorituvchi ko'riktanlov hamda ko'rgazmalarni respublikaning barcha tuman, shahar, viloyatlarida tashkil etish ajoyib an'analariga aylanib qoldi. Bu an'anaga muvofiq, mamlakat bo'yicha o'tkazilgan yakuniy ko'rik tanlov va ko'rgazmalarda g'olib chiqqan mohir ustalar va ustozlar respublika Prezidentining qimmatbaho sovg'asi bilan taqdirlanadilar. Ular xalqaro tanlovlarda ishtirok etish uchun maxsus yo'llanma oladilar. Bu g'ol esa, milliy madaniyatimiz merosi hisoblangan xalq hunarmandchiligi sohalari, amaliy san'atini bevosita Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan yangidan umumdavlat miqyosida rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilayotganligiga yaqqol dalil bo'la oladi.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san'atning ko'pdan ko'p sohalari bilan uyg'unlashib ketadi. Ammo, taviriy va amaliy san'at, buyumlarga badiiy ishlov berish jarayonining hamda xamda xalq

hunarmandchiligining o'ziga xosligi, yo'llarini, xususiyatlarini, o'xshashliklarini va qolaversa, bir-biridan farqlarini ajratish muhimdir.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatish kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biri sanalid. Jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida o'quvchilarga gazlama bilan ishlash malakasini o'rgatish maktablar tajribasida u qadar to'g'ri tashkil etilmagan. SHuning uchun biz bitiruv malakaviy ishimni boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatishga bag'ishladim.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yosh avlodga yaxshi ta'lim-tarbiya berish, ularni turli kasb-hunarlariga tayyorlash, kasb-hunarlarning afzalligi, foydasi, hunarmand kishilarning fazilatlari to'g'risida SHarq va G'arb xalqlari mutafakkirlari, yozma va og'zaki ijod namoyandalari o'z asarlarida bebaho fikrlarni bayon etganlar. Muqaddas kitoblar hisoblangan Qur'oni karim, Hadisi shariflarda hamda allomalardan al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Imom al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Bahovuddin Naqshbandiy, Sa'diy SHeroziy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy o'z asarlarida halol mehnatni ulug'laganlar, kishilarni kasb-hunarli bo'lishga targ'ib etganlar.

Buyuk xalqning o'tmishi ham buyuk bo'lishi bilan birgalikda milliy-tarixiy meroslar, madaniy qadriyatlari ham turli-tumandir. Hozirgi davrda milliy meros, qadriyatlar, ma'naviyat va madaniyat namunalarini ta'riflash va ularni hayotga targ'ib etish bilan faylasuflar, siyosatshunoslar, tarixchilar, pedagoglar, psixologlar va boshqalar shug'ullanmoqdalar.

O'quvchilarning mehnat va kasbga tayyorgarlik muammolarini tadqiq qilish bilan bir qator olimlar shug'ullandilar. Jumladan, mehnat va kasb ta'limini tashkil etish, takomillashtirish nazariyasi va amaliyoti R.H.Djuraev, E.T.CHoriev, N.SHodieva, SH.S.SHaripov yoshlarning ta'lim va tarbiyasini

tashkil etish, amalga oshirish, tasviriyl va amaliyl san`at hamda xalq hunarmandchiligi bo'yicha S.Bulatov, R.Hasanov, A.Sulaymonov, B.Muranov, O.Jamoliddinova, D.Zohidova, R.Sarsenbaevalar o'z Bitiruv malakaviyl ishi ishlarini monografiya, qo'llanma va tavsiyanomalar ko'rinishida chop ettirdilar.

O'zbekiston Respublikasining etnografik, tarixiy, milliy, mahalliy shart-sharoitlari etarli darajada hisobga olinmaganligi; o'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanishning tarixiy rivojlanishi etarlicha o'rganilmaganligi; o'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanmaganligi; o'quvchilarni mehnat va kasbga tayyorlashda o'quv mashg'ulotlarining imkoniyatlari to'liq yoritilmaganligi; yoshlarni mehnat va kasbga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanishni takomillashtirish uchun tarbiyaviyl tadbirlarga etarli ahamiyat berilmaganligi; yoshlarni mehnat va kasbga tayyorlashda o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan foydalanish holati ochib berilmaganligi kabilar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviyl ishining maqsadi: boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishni nazariyl jihatdan asoslash va amaliyl tajribada sinovdan o'tkazish.

Bitiruv malakaviyl ishining vazifalari:

- mavzuga daxldor adabiyotlarni o'ragnish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishning mavjud holatini o'rganish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatish tajribasini o'rganish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishga doir zamonaviyl metodlarni o'rganish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar

yasashga o'rgatishga doir tavsiyala ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishning pedagogik shart-sharoitlari.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublika-sining Konstitutsiyasi; "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Sog'lom avlod" davlat dasturi; yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan qarorlar; yoshlarni mehnat va kasbga tayyorlashga oid SHarq mutafakkirlarining asarlari, o'g'itlari, fikrlari; yoshlarni mehnat va kasbga tayyorlash to'g'risidagi pedagogik, psixologik, didaktik nazariyalar xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi metodlari: kuzatish, anketa, test, suhbat, ilmiy-nazariy, pedagogik, psixologik, uslubiy adabiyotlar tahlili, umumiy o'rta ta'lim maktablari, arxiv hujjatlari bilan tanishish, sinov darslarini o'tkazish, sinov o'quv kurslarini o'tkazish, olingan ilmiy natija va dalillarni qayta ishlash va umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishga doir amaldagi holatning o'rganilganligi; boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishning o'ziga xos jihatlari aniqlanganligi; boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatish orqali o'quv mashg'ulotlari imkoniyatlarining yoritilganligi; boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishni takomillashtirish uchun o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarning o'rni va ahamiyati yuqori ekanligi; boshlang'ich sinf

o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatish mezonlarining ishlab chiqilganligidadir.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining amaliy ahamiyati: bitiruv malakaviy ishi natijasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishga oid yondashuvlar hamda ilmiy-uslubiy tavsiyalar bilan boyitildi. SHuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o'rgatishni takomillashtirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning tarixiy rivojlanishi va o'ziga xos jihatlari belgilab berildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ish kirish, 2 bob, 4 paragraf, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB

BOSHLANG'ICH SINF MEHNAT DARSLARIDA GAZLAMA TURLARI VA ULARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatish

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini maktabga kelish paytiga kelib bolalar qanday gazlamalar va iplar bo'lishi, ulardan inson qayerda va qanday foydalanishi, ular qanday foyda keltirishi to'g'risida ba'zi tasavvurlarga ega bo'ladilar. Odatda bu tasavvurlar uzuq-yuluq, noto'liq bo'lib, bir tizimga solinmagan bo'ladi. Qizlar va o'g'illarda bu tasavvurlar hajmi, to'liqligi va sifati bo'yicha turlicha bo'ladi. Gazlamalar va trikotaj mahsulotlardan foydalanishda bolalar ko'pincha ongsiz, noto'g'ri ish tutib, bu ularning buzilishiga yoki xizmat muddatlarining qisqarishiga olib keladi.

II sinfda o'quvchilar birinchi mehnat darslarida tuzilishi va tayyorlash usullari bo'yicha eng oddiy mahsulotlarda gazlamalar va iplardan foydalanishning elementar masalalarni amaliy hal etishdayoq bolalarda to'qimachilik tolalar va gazlamalar, ularning texnika, ishlab chiqarish va ayniqsa turmushda, kundalik hayotda qo'llanishi to'g'risida bo'lgan bilimlarni aniqlash va umumlashtirish zarurati paydo bo'ladi.

Birinchi suhbatlardayoq o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'z hayot tajribalarini ishga solib, gazlamalardan ichki kiyim, ko'ylaklari, palto va kostyumlar, turli bosh kiyimlari, dasturxon va yostiqlar, pardalar, sochiqlar va dastro'mollar, parashyutlar, divan, stullar uchun qoplamalar, poyabzal

astarlari, bayroqlar, sumkalar tikilishini aniqlaydilar.

O'qituvchining keyingi suhbatlari va hikoyalari, u tashkil etuvchi kuzatishlar va tajribalar, eng oddiy tajriba ishlaridan o'quvchilar asta-sekin to'qimachilik tolalari, undan tayyorlanuvchi iplar va gazlamalar, turli gazlamalarning tayyorlanish xususiyatlari to'g'risida ko'p yangi va foydali ma'lumotlarni bilib oladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'qimachilik materiallari, ularning asosiy xususiyatlari va ishlov berish usullari to'g'risidagi bilimlarining to'ldirilishi va tizimlanishi bolalarga bu materiallarni farqlash, ulardan to'g'ri foydalanish va ishlov berishni o'rganishga yordam beradi.

Tolali materiallardan tayyorlangan gazlamalar to'g'risidagi o'quvchilarning bilimini to'ldirish va tizimlashtirishni o'quv dasturi doirasida amalga oshirib, ularning xotirasini ikkinchi darajali ma'lumotlar bilan to'ldirmaslik kerak. Bunda to'qimachilik materiallari (tolalar, iplar, gazlamalar va trikotaj), ulardan foydalanish to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni, o'quvchilar uyda olishini hisobga olish va esda tutish kerak. IV sinf va keyingi sinflarda qiz bolalar to'qimachilik materiallari bilan nazariy va amaliy tanishuvni davom ettirishi, o'g'illar esa bu materiallar bilan ishlashni III sinfda tugatishni esda saqlash ham muhim. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda ushbu materiallar to'g'risida hamma o'quvchilar o'quv dasturida ko'zda tutilgan va yetarlicha yaxshi tizimlashtirilgan bilimlar olishi va ularda bu materiallarda ishlov berish bilan bog'liq dastlabki malaka va ko'nikmalar hosil bo'lishiga erishishi zarur.

To'qimachilik materiallari namunalarini ko'rib chiqishda, ularning sifat xususiyatlari va ishlov berish hamda pardoqlashning o'ziga xosligini aniqlash uchun oddiy kuzatishlar va tajribalarni tashkil etishda o'quvchilarni bu materiallarni qog'oz, karton, fanera, metallik folga, plastmassa plyonkalar bilan taqqoslashga yo'naltirish foydali. O'quvchilar e'tiborini u yoki bu

materiallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarning qo'llanish sohasi va sharoitlari mutaxassislarning bu materiallar xususiyatlarini takomillashtirish va ulardan tayyorlanuvchi mahsulotlarning ratsional konstruksiyalari va pardoqlash usullarini tanlash ishini belgilashiga qaratish lozim. O'quvchilarga olimlar va ishlab chiqaruvchilarning izlanishlari to'qimachilik tolalari va gazlamalarining yuqori mustahkam, g'ijimlanmaydigan, suvni itaruvchi, yuqori haroratga chidamli plastiklar, sun'iy charm, sun'iy mo'yna uchun asos bo'lib xizmat qila oluvchi yangi turlarini yaratilishiga olib kelganini ko'rsatish foydali.

Ikkinchi sinf o'quvchilari bajaruvchi kuzatishlar, tajribalar va amaliy ishlar jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga o'z ishida gazlamada foydalanuvchi har bir kishi uchun ularning turli xususiyatlarini bilish va hisobga olish kerakligini ko'rsatuvchi aniq misollar keltiradi. Tayyorlanuvchi buyumlar vazifasi, tuzilishi va foydalanish sharoitlariga qarab gazlamalarning sifat xususiyatlariga qo'yiluvchi talablar o'zgaradi. Birinchi sinf o'quvchilariga kiyim tayyorlash uchun materiallarni tanlash misolida gazlamalarning alohida xususiyatlariga asosiy talablardagi farqlarni ko'rsatish mumkin. Bu kiyim, ma'lumki, mavsumiy (yozgi, qishki va mavsumaro, uy kiyimi, ustki va ichki, sport kiyimi va hokazo bo'ladi. Har bir alohida holda gazlamalarni issiqlik himoyalash xususiyatlari, qalinligi, mustahkamligi, rangi va, albatta, narxi bo'yicha tanlay olish kerak. yozgi ko'ylak uchun engil mato, qishki palto uchun qalin va mustahkam mato talab etiladi. Ichki kiyim uchun yengil va arzon oq ip-gazlama mato, chiqish uchun ko'ylak uchun ancha qimmat va chiroyli, ipak yoki jun mato olinadi.

Tikish bo'yicha amaliy ishlarni boshlashda o'qituvchi o'quvchilar bilan ip, gazlama, trikotaj, to'qilgan mahsulotlarning tayyorlanishida foydalaniladigan tolali materiallar to'g'risida qisqacha suhbat o'tkazadi. Bolalarga tipik, yaxshi tanish bo'lgan narsalarni ko'rsatib, ularning bu

mahsulotlar o'rtasidagi umumiy, ularni birlashtiruvchi narsani tushunishlariga harakat qiladi: ularning hammasi tolalardan tuzilgan, tolali tuzilishga ega materiallardan tayyorlangan.

Kir osadigan arqonni ochib, tikuvchilik ipi, gazlama bo'lagidan tortib chiqarilgan yoki eski qo'lqopdan tortib chiqarilgan ipni ko'rsatib, o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilariga bu materiallarning hammasi tolalardan tuzilganini ko'rsatadi.

O'quvchilarga bu tolalar turli narsalardan olinishi mumkinligini ko'rsatish ham muhim. II-sinfda to'qimachilik tolalarining batafsil tasnifini ma'lum qilish, ularning tabiiy, sun'iy, sintetik va mineral turlarga ajratilishini ko'rsatishning hojati yo'q. O'quvchilarga II-sinfda tikuvchilik bo'yicha o'z amaliy ishlarida o'simlikdan olinuvchi tolali gazlamalardan foydalanishlarini aytish kifoya.

Suhbat chog'ida o'qituvchi o'simlikdan olinuvchi eng ko'p tarqalgan tolali materiallar – paxta (hech bo'lmaganda oddiy momiq), zig'irtola, paklyani ko'rsatadi. U paxta yoki paklya bo'lagidan yakka tolalarni qanday tortib olishni, bu tolalarni oddiy o'rganilishini – ko'rish, ushlab ko'rish, uzunligini, egiluvchanligini, mustahkamligini, rangini qanday aniqlashni ko'rsatib beradi.

O'quvchilarda to'qimachilik tolalari va materiallari to'g'risidagi dastlabki umumlashtirilgan tasavvurlarning hosil qilinishiga birinchi navbatda bu materiallardan foydalanib amaliy ishlarning bajarilishi yordam beradi. O'quvchilarning bilimini boyitish va tizimga solish, to'qimachilik materiallarining umumiy tasnifini o'zlashtirish uchun darslarda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda bosh o'quv teksanoat korxonalari tomonidan chiqariluvchi bu materiallar to'plami, asosiy jarayonlar va ularni qo'lda ishlov berish usullarini ko'rsatuvchi ko'rgazmalarning ko'rsatilishidan foydalanish yaxshi. Materiallar va ularning muhim xususiyatlarini o'rganish

uchun qo'lbola ko'rgazmalarni tayyorlash bo'yicha o'quvchilarning mustaqil amaliy ishi alohida ahamiyatga ega.

To'plamlar uchun materiallarni tanlash boshlang'ich sinflarda odatda elementar, to'plangan materiallar namunalarini ongli tasniflash hamda bu namunalarning mavjud to'plamini u yoki bu oldindan tanlangan va mantiqan asoslangan tasnifiy belgi bo'yicha to'ldirishga imkon beruvchi izlanishlarni o'tkazish bilan bog'liq. Bu maqsadda o'quvchilar materiallar sifat xususiyatlarini aniqlashning oddiy izlanishlarini amalga oshiradilar, to'plam namunalari joylashuvi sxemasini tuzadilar, ular usti va ostidagi yozuvlar mazmuni va ifodalanishini belgilaydilar, bezatish masalasini hal etadilar. Materiallar to'plash va to'plam tuzish ishini o'quvchilar I sinfdan boshlab, keyin III va IV sinflarda materiallarning yangi turlarini o'rganib borib davom ettirishlarini hisobga olish zarur.

O'simlikdan olinuvchi tolalar to'g'risida bilimlarni o'zlashtirish, tolalardan tayyorlangan iplar va gazlamalar bilan amaliy tanishib borib, birinchi sinf o'quvchilari muvofiq materiallar namunalarini tanlab joylashtiradilar (ip-gazlama iplar va gazlamalar). O'quv maqsadlarida o'quvchilar to'plamlaridan foydalanish qulay bo'lishi uchun ular daftarlarida gazlama namunalarini shunday o'rnatadilarki, har bir namunani nafaqat o'ng, balki teskari tomonidan ham ko'rib, taqqoslab bo'lsin, ularni ushlab ko'rish, gazlama qalinligi, rangi, yuzasining silliqligini va hokazo aniqlab bo'lsin.

II-sinfda bolalar amaliy ishlari jarayonida o'zlari foydalanadigan eng ko'p tarqalgan ip-gazlama matolarni tanlaydilar, o'rganadilar, to'plamlariga o'rnatadilar. Bu tanda va arqoq iplari polotno o'ramli matolar – doka, chit, polotno.

O'simlik tolalaridan tayyorlanuvchi iplar – tikuvchilik, yamoqchilik, kashtachilik iplarining kichik to'plamini o'quvchilar alohida joylashtiradilar. SHu to'plamning o'zida turli qalinlik, turli ranglar bilan farqlanuvchi iplar

namunasini ham ko'rsatadilar.

Iplar va gazlamalar namunalarini to'plash, to'plamlarni tuzish va joylashtirish ishlari shunday bajariladiki, bunda birinchi sinf o'quvchilari oladigan bilimlar o'quv dasturida ko'zda tutilgan «Qanday gazlamalarni bilamiz», «Gazlamadan nimalar tayyorlanadi», «Qanday iplarni bilamiz» mavzularidagi suhbatlarni o'tkazish uchun asos, ko'rgazmali material bo'lib xizmat qilsin.

«Qanday iplarni bilamiz» mavzusida suhbat o'tkazishda o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilari iplar to'g'risida nimalar bilishini, ularni vazifasiga ko'ra farqlay olishi, ulardan o'z amaliy zaruratlarida foydalana olishini aniqlaydi.

Suhbat va u bilan bog'liq ko'rsatishlar birinchi sinf o'quvchilarining ko'p qo'llanuvchi iplarning vazifasi, qalinligi, rangiga ko'ra assortimenti to'g'risidagi tasavvurlarini umumlashtiradi.

Oddiy tikuvchilik iplari o'ramini ko'rsatib, o'qituvchi qator savollar bilan o'quvchilarni ma'lum xulosaga olib keladi: bu tikuvchilik iplari, ulardan kiyimlar, bosh kiyimlari, yostiq anjomlari, pardalar, xaltalar va ko'pgina boshqa narsalarni tikish uchun foydalaniladi. O'quvchilarning maktab formasi, sinf pardalarini tikish uchun ham iplardan foydalanilgan.

O'qituvchi oq va qora ip o'ramini ko'rsatib, ulardan qayerda foydalanilishini so'raydi. Oq ipdan oq matodan detallarni tikish, qora ipdan - qora matolardan detallarni tikishda foydalaniladi. Oq tugmalar oq ip bilan qadaladi. Rangli gazlamalardan narsa tikish kerak bo'lsa-chi? Ranggi gazlama rangiga mos tanlanuvchi rangli iplardan foydalaniladi.

O'qituvchi bir xil rangli, biroq tusi farqlanuvchi bir necha ip o'ramlarini ko'rsatadi, masalan: to'q qizil, och qizil, qip-qizil.

Keyin o'quvchilar nima uchun turli qalinlikdagi iplar ishlab chiqarilib, sotuvga chiqarilishini aniqlaydilar (yupqa gazlamalar yupqa iplar bilan,

qalinlarini qalin va mustahkam iplar bilan tikiladi).

O'qituvchi bir xil rangdagi, lekin turli qalinlikdagi ip-gazlama iplarning bir necha o'ramini ko'rsatib, bu iplar qalinligini birgalikda aniqlashni taklif qiladi (iplarni ko'rinishi bo'yicha va ushlab ko'rib taqqoslash mumkin). Ip qalinligini aniq bilish uchun har bir o'ramda bo'luvchi etiketkaga qarash kerak: raqam iplar qalinligini ko'rsatadi.

O'qituvchi ko'rsatgan ip o'ramlarini ko'rib chiqib, o'quvchilar ip qanchalik qalin bo'lsa, ularning raqami shuncha kam ekanligini qayd etadilar. O'quvchilar hamma tikuvchilik iplari raqamlari nolga tugashini ham aytib o'tadilar: etiketkalarda 10, 40, 50 va hokazo o'qish mumkin.


Birinchi sinf o'quvchisining kuzatuvchanligini aniqlash uchun muhokamaga savol qo'yish mumkin: etiketkasi yo'qotilgan yoki yirtilgan bo'lsa tikuvchilik ipi qalinligini qanday bilish va taqqoslash mumkin. O'quvchilarning o'zi sezmasa, ularning e'tiborini g'altakli tikuvchilik iplarining yog'och g'altagi turli o'lchamda ekanligi, iplar qanchalik qalin bo'lsa, g'altak shunchalik kattaligiga qaratish kerak.

O'quvchilar oddiy bezaklar yoki belgilarni tikish bo'yicha topshiriq oladigan darslarning birida, ular muline iplarini ko'rib chiqib, bu iplarning qaysi sifatleri ularning kashta tikish uchun yaroqli qilishini aniqlashga harakat qiladilar (bu iplar mustahkam, yumshoq, turli rangda bo'lib, ular yorug'lik va yuvish vositalari ta'siriga chidamli).

Amaliy ishlarni bajarishga o'tishda birinchi sinf o'quvchilari birgalikda o'rganishni amalga oshirish bo'yicha o'xshash topshiriqni oladilar (paypoqlarni yamash). Xususan, o'quvchilar yamash uchun iplar nima uchun yumshoq va egiluvchan ekanligini aniqlaydilar.

Arqoq va tanda iplari polotno o'ralishli matolar namunalari: doka, xaltalik, astarlik gazlamalarni ko'rib chiqib, o'quvchilar gazlamalar o'zaro o'ralgan iplardan iborat degan xulosaga keladilar. O'quvchilar rangli qog'oz

yo'llardan mehnat darslarida gilamchani shunday o'raganlar. O'qituvchi iplarning bu usulda o'ralishi eng oddiy ekanligini aytadi. Bu o'ralish polotno o'ralish deb ataladi (14-rasm). Bu o'ralishli turli matolar chiqariladi: polotno, doka, astarlik, chit, bo'z va boshqalar.



Oddiy karton to'quv romchalaridan foydalanib tanda va arqoq iplari polotno o'ralishi xususiyatlarini o'rganish

O'quvchilar matoda iplar ikki o'zaro perpendikulyar yo'nalishlarda, birbiriga to'g'ri burchak ostida joylashishini aniqlaydilar. O'qituvchi katta mato bo'lagini ko'rsatadi va ikkinchi sinf o'quvchilari bu bo'lakda bir iplar bo'ylama (tanda iplari), boshqalari esa – ko'ndalang, bir chetdan ikkinchisigacha (arqoq iplari) bo'lishini ko'radilar.

Keyin ikkinchi sinf o'quvchilari o'zlaridagi polotno o'ralishli mato namunalarini turish tomondan (o'ng va teskari) qarab chiqib, bu tomonlar bir xil ko'rinishga ega degan xulosa chiqaradilar.

O'z kuzatishlariga xulosa yasab, birinchi sinf o'quvchilari gazlama o'zaro o'ralgan tanda va arqoq iplaridan iborat deb xulosa qiladilar. Polotno o'ralishli gazlamada har bir arqoq ipi navbatma navbat har bir tanda ipi bilan o'raladi.

O'qituvchi gazlamalar maxsus to'quv dastgohlarida tayyorlanishini aytadi.

O'quvchilarning politexnik tasavvurlarini kengaytirish va ularda to'qimachilik hamda tikuvchilik sanoatlari, ular chiqariluvchi mahsulot, to'quvchilik va tikuvchilikning asosiy kasblari to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilish uchun mehnat darslarining birida bu sanoat sohalari tipik mahsulotlarini ko'rsatib suhbat o'tkazish foydali. Bunday ko'rsatishlar uchun o'qituvchi mahsulot namunalari (masalan, o'quvchilar kiyimi), rasmlar, suratlar, kitob va jurnal rasmlari, diafilmlar, slaydlardan foydalanadi.

Bunda gazlamalar, iplar, kiyim, uy-ro'zg'or buyumlaridan tashqari o'quvchilarga lentalar, tasmalar, to'rlar, trikotaj mahsulotlar, kashta uchun kanvani ko'rsatish yaxshi.

To'qimachilik va tikuvchilik sanoatlari mahsulotlarini ko'rsatib, bolalar nafaqat turli-tuman chiqariluvchi mahsulotlar bilangina tanishtiriladi, balki ularda ishlab chiqarish kasblari (to'quvchilar, yigiruvchilar) to'g'risida, hamda rassomlar, modelerlar, tikuvchi-motoristkachilar to'g'risida umumiy tasavvur shakllantirishga ham yordam beradi.

O'qituvchi muvofiq korxonalar, tikuvchilik atel'elari yoki gazlama va kiyimlar bilan savdo qiluvchi do'konlarga ekskursiyalar o'tkazish uchun vaqt va imkoniyat topsa, bolalardagi to'qimachilik hamda tikuvchilik sanoatlari va ularning yetakchi kasblari to'g'risidagi umumiy tasavvurlari yanada yaqqolroq bo'ladi. Keyingi holda o'quvchilarga gazlamalar etiketlari va narxlari bilan tanishib, yozib olishni topshirish, keyin esa matematika darslarida masalalar tuzib yechish foydali. Topshiriq differentsiallashtirib berilishi mumkin: bir guruh o'quvchilarga ip-gazlama matolar, boshqasiga ipak, uchinchisiga jun matolar nomi va narxini yozishni topshirish mumkin.

III sinfda to'qimachilik materiallarining asosiy xususiyatlarini amaliy o'rganish ishi davom etadi. Mehnat darslarida ishlatiluvchi materiallarning muhim xususiyatlarini o'rganish uchun kuzatishlar va oddiy tajribalar katta politexnik ahamiyatga ega bo'lib, ular jarayonida bolalar qog'oz va

gazlamaning tuzilishi, mustahkamligi, egiluvchanligini taqqoslaydilar.

Dastlab o'quvchilar birgalikda qog'oz va gazlamada nima umumiyligini aniqlaydilar. Ular:

1) qog'oz va gazlama yupqa materialligi, ularning uzunligi va enini taqqoslashdagi qalinligi ahamiyatsizligi;

2) qog'oz va gazlama tolalardan iborat materiallar bo'lib, bu tolalar qog'ozda chirmashtirilib, yyelimlangan, gazlamalarda esa tolalar dastlab ip hosil qilish uchun yigirilgan, keyin esa to'qilganligi;

3) qog'oz va gazlama tuzilishiga ko'ra turli yo'nalishlarda – bo'ylama va ko'ndalang – turlicha (gazlamalarda bu yo'nalishlarni ko'pincha tanda va arqoq yo'nalishlari deb atashadi). Shuning uchun qog'oz va gazlama xususiyatlari turli yo'nalishlarda turlichaligi (masalan, bu materiallar mustahkamligi va cho'zilishini solishtirish kifoya);

4) qo'lda ishlov berishda qog'oz va gazlama bir xil asbob - qaychi bilan kesilish;

5) qog'oz va gazlamadan mahsulot detallari yelimlash yoki tikish orqali birlashtirilishi;

6) qog'oz va gazlama, kerak bo'lsa, bo'yalishi, ularda rasmlar, bezaklar, naqshlar, yozuvlar bosmalanishini qayd etishadi.

Keyin o'qituvchi o'quvchilar diqqatini qog'oz va gazlamaning muhim xususiyatlardagi farqlariga qaratadi.

O'quvchilar o'lchamlari bir xil bo'lgan qog'oz va gazlama yo'llarni yirtishga harakat qilib, gazlamalar qog'ozga qaraganda yirtilishga nisbatan ancha ko'proq mustahkamlikka ega degan xulosaga keladilar. O'quvchilar qog'oz va gazlamani bukish va egishga harakat qiladilar. Ular qog'oz oson bukilishi va tekislanishi, uni hamma taxlamalar yaxshi saqlanib qolishida ishonch hosil qiladilar. Gazlamada taxlamalar uzoq saqlanib qolishi uchun ularni issiq dazmol bilan bosishga to'g'ri keladi (masalan, shimlar,

yubkalarda va hokazo taxlamalar).

Qog‘oz va gazlama namunalarini suv bilan ho‘llab yoki oldin o‘tkazgan tajribalarni eslab, o‘quvchilar qog‘oz namlanib mustahkamligi kamayishi, qog‘oz buyumlar buzilishini qayd etadilar. Gazlamalar esa sifati buzilmay, ko‘p martalab yuvilishni ko‘taradi.

1.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga gazlamadan turli buyumlar yasashga o‘rgatishning mavjud ahvoli

Ikkinchi sinf o‘quvchilari ip-gazlama iplardan tashqari hayvondan olinuvchi tolalardan tayyorlangan iplarning tabiiy ipak va junning sifat xususiyatlarining oddiy o‘rganilishini amalga oshiradilar. O‘quvchilar bu iplar ip-gazlama iplar bilan nimasi bilan o‘xshash va nimasi bilan farqlanishini aniqlash topshirig‘ini oladilar. Bolalar o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan ip turlarini tola tuzilishi xususiyatlari, qatlar soni, mustahkamligi, yumshoqligi, qalinligini, etiketkalarini taqqoslaydilar, keyingilaridan iplarning aniq amaliy ishlarni bajarish uchun yaroqliligini aniqlashda foydalanishga o‘rganadilar.

O‘qituvchi ikkinchi sinf o‘quvchilariga savollar beradi: Nima uchun paypoqlarni oddiy ip-gazlama tikuvchilik iplari bilan yamash mumkin emas? (Ular ko‘proq eshilib, yyelimlangan, shuning uchun ko‘proq qattiqroq. Ular bilan yamoqlangan paypoq joyi oyoqni qavartiradi. Yamoqlash ipi yumshoq, g‘ovak, elastik. Ularning mos rangini tanlash osonroq. Ular bilan yamoqlangan joy yaxshiroq ko‘rinishga ega). Nima uchun tugmalarni yamoq qo‘yish iplari yoki muline iplar bilan emas, tikuvchilik iplari bilan qadashadi? (Tikuvchilik iplari mustahkamroq). Nima uchun qo‘lqoplar jun iplardan to‘qiladi? (Ulardan to‘qilgan qo‘lqop va paypoqlar issiqroq). Qalinligi bir xil, lekin turli narsalardan olingan yoki turli vazifalardagi ikki ipning uzilishga mustahkamligini, masalan ip-gazlama va jun yoki kashtachilik va tikuvchilik iplarini, qanday oddiygina taqqoslash mumkin?

«Qanday to‘qimachilik mahsulotlarni bilamiz?» va «Ipak hamda jun gazlamalar vazifasi» mavzusidagi suhbatlarni tayyorlashda o‘qituvchi ikkinchi sinf o‘quvchilariga uyda kattalar yordamida tabiiy jun va tabiiy ipak tolalardan tayyorlangan mato bo‘laklarini topish vazifasini beradi. Keng tarqalgan va bolalarga tanish gazlamalarni tanlash yaxshiroq.

O‘quvchilarni turli (shu jumladan ipak va jun) iplar va gazlamalarni farqlash va to‘g‘ri ayta olishga o‘rgatish uchun o‘qituvchi ularga to‘plamlarini nomlash va har bir namuna ostiga uning nomini yozishni topshiradi. O‘quvchilarga iplar namunasi yoniga mos etiketkalarni yopishtirishni taklif etish foydali, bu etiketkalarni bolalar ip g‘altaklari, o‘ramlaridan ehtiyotkorona olishadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni ular tuzgan to‘plamda faqat o‘simlik va hayvonlardan olingan tolalardan tayyorlangan gazlamalar ko‘rsatilganligini aytib o‘tadi. Bu to‘plam keyinchalik sun‘iy, sintetik tolalardan tayyorlangan iplar va gazlamalar namunalari bilan to‘ldiriladi.

Tajriba ko‘rsatishicha, o‘quvchilar to‘plami uchun gazlama namunalari o‘lchamlarini uzunligi 60 mm, eni 45 mm bo‘lishi qulay.

II va III sinflarda mehnat darslarida o‘quvchilar to‘qimachilik materiallari – tolalar, ularning muhim xususiyatlari to‘g‘risida asta-sekin bilimlar to‘playdilar. Joriy amaliy ish uchun zarur bilimlar uchun o‘quvchilarni qurollantirish maqsadida ko‘rsatishlar, kuzatishlar va oddiy tajribalar qatori o‘tkaziladi. IV sinfda o‘quvchilarda iplar tasnifi, ularning ishlab chiqarilishi, muhim xususiyatlari, mehnatda qo‘llanishi to‘g‘risidagi mavjud bilimlarni umumlashtirish, tizimga solish maqsadida suhbatlar, ko‘rsatishlar, kuzatishlar va tajribalar o‘tkazish foydali.

Kichik suhbat davomida uchinchi sinf o‘quvchilari tolali materiallar, iplar to‘g‘risidagi o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan hamma ma‘lumotlarni birgalikda eslaydilar. Ular iplar o‘simlik, hayvonlar, sun‘iy va sintetik tolali


materiallardan yigirish orqali tayyorlanishini bilib oladilar. Keyingi vaqtlarda turli tolalar: o'simlik va sun'iy, sintetik va tabiiy jun va hokazo aralashmasidan tayyorlangan iplar ko'proq uchramoqda.

Sinf iplar to'plami, o'quv to'plamlarini diqqat bilan qarab chiqib, hamda ish stollarida bo'lgan turli iplar namunalarini o'rganib, g'altaklar va o'ramlardagi etiketkalarni o'qib, o'quvchilar hamma iplarni amaliyot uchun muhim belgilar va xususiyatlar qatoriga qarab tasniflash mumkinligini birgalikda aniqlaydilar.

1. Iplar tayyorlangan tolalarga qarab: ip-gazlama, zig'ir, jun, ipak (tabiiy va sun'iy toladan), sintetik va aralash (u yoki bu tolalarning turli kombinatsiyalaridan). O'quvchilarga tolalarning boshqa tasnifini ham taklif etish mumkin: ularning olinishiga ko'ra: o'simlik, hayvon, sun'iy, sintetik va mineral.

2. Vazifasiga ko'ra iplar tikuvchilik, kashtachilik, yamash, to'qish va hokazo bo'linadi.


3. Qalinligi bo'yicha iplar nomerlarga ko'ra bo'linadi. Masalan, tikuvchilik iplarining metrik nomeri 1 g da necha metr ip borligini ko'rsatadi. Oddiy o'rganish orqali o'quvchilar iplar qalinligi eng avvalo ularning tayyorlanishi uchun foydalanilgan ip qalinligi va qavatlar soniga bog'liq (15-rasm).



Tikuvchilik iplari, shpagat, tasmada iplar qatlami sonini aniqlash:

Iplar to'g'risidagi bilimlarni umumlashtirish maqsadida kuzatishlar va oddiy o'rganishlar vaqtida o'qituvchi tolali materiallar va iplarning sinf to'plamni ko'rsatadi. Bunda iplar iste'molchilarga qay ko'rinishda yetib kelishiga alohida e'tibor qaratiladi: yog'och g'altaklar (shpulkalar), o'ramlar, bobinalar, karton yulduzchalarda. O'quvchilar har bir g'altak, o'ram, iplar solinadigan qutilarda bo'luvchi etiketkalar bo'yicha ish uchun zarur bo'lgan iplar to'g'risidagi ma'lumotlarni qanday aniqlash kerakligini eslaydilar.

O'quvchilarning kuzatishlari va oddiy tajribalariga yakunlar yasab, o'qituvchi ularga bilgan, tajribali kishi tashqi ko'rinishiga qarab ular oldida qanday ip – tikuvchilik, xom, kashtachilik, yamash uchun va hokazo turganini aniqlay olishni eslatadi.



Turli vazifali iplar to'plami:

Tashqi ko'rinishiga qarab iplar rangi va pardoatlanishini aniqlash yana ham oson. Qatlar sonini ip bo'lagini ochib aniqlash mumkin. Lekin etiketkalarda yozilgan ip to'g'risidagi ma'lumotlarni – ip navi, uning raqami, qatlar soni, metr uzunligi (jun ip o'ramlarida ularning og'irligi ko'rsatiladi)

o‘qib olish osonroq.

Etiketka – bu ip g‘altagi, o‘ramining pasporti. Etiketka bo‘lmasa yoki uni o‘qishning iloji bo‘lmasa, usiz ishlash va mustaqil ravishda oldingizda qanday ip turganini aniqlay olish kerak. Ip-gazlama iplarni ipakdan, mulineni yamash ipidan, ipaklarni viskoz iplardan va hokazo farqlay olish kerak. Yetarlicha ko‘nikmalar bo‘lganda o‘quvchilar tikuvchilik ipi nomerini, ya‘ni ularning qalinligini ancha-muncha aniq aniqlay oladilar. Ipning kichik bo‘lagidan uchinchi sinf o‘quvchilari uning rangi, qatlar, sonini aniqlaydilar.

Iplarning muhim xususiyatlarini amaliy o‘rganish uchun kuzatishlar va tajribalarni o‘tkazishda, suhbatlar davomida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish foydali.

IV sinfga kelib o‘quvchilarda iplar, ular tayyorlanuvchi tolali materiallar, ularning assortimenti va qo‘llanish sohasi to‘g‘risida bilimlar to‘planadi. O‘quv yilining boshidayoq bolalar to‘plagan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish ishini o‘tkazish foydali. Bunday umumlashtirishga mehnat darslarida tolali materiallar, iplar mustahkamligini o‘rganish bo‘yicha qator kuzatishlar va tajribalar yordam beradi.

Tolali materiallar, ularning kelib chiqishi, muhim xususiyatlari, tasnifi, ulardan turmush va texnikada foydalanish to‘g‘risida qisqa suhbatdan keyin o‘quvchilarga tarqatma material sifatida bir bo‘lak paxta, yamash ipi va bir bo‘lak ip-gazlama tikuv ipi №10 tarqatiladi. O‘qituvchi taklifiga ko‘ra o‘quvchilar bu materiallarni diqqat bilan ko‘rib chiqadilar va ularning hammasi tolalardan iboratligini qayd etadilar. Paxtada tolalar tartibsiz chirmashgani, yamash ipida bir-biri bilan eshilgani, tikuv ipida ham tolalar eshilgani, biroq eshilish yamash ipidan ko‘ra zichroq ekanligini bolalar birgalikda aniqlaydilar. Bolalar tikuv iplari sirti sal yaltirashi va ularda alohida tolalarning uchlari ko‘rinmasligi, bu tolalar yelimlangandek ekanligini qayd etadilar. Sinfdan o‘z hayot tajribalari, oldingi kuzatishlari

asosida ko‘rib chiqilayotgan materiallarning quyidagi xususiyatlarini aytib o‘tadigan o‘quvchilar topiladi: paxta doimo o‘zi tayyorlangan materialdek oppoqligi, tikuv va yamash iplari esa turli ranglarga bo‘yalgan bo‘ladi.

O‘qituvchi yo‘riqlarini tinglab, o‘quvchilar paxta bo‘lagi va ip uchlaridan bir necha tolalarni tortib oladilar va diqqat bilan o‘rganadilar, ko‘rib chiqadilar, uzunligini aniqlaydilar, uzilishga chidamliligini sinaydilar, rangi, yaltirashi va boshqa xususiyatlarini taqqoslaydilar.

Bir bo‘lak paxtani olib, uning qarama-qarshi tomonlaridan turli tomonga tortib o‘quvchilar tolalar osongina bir-biridan ajralishi, ularda bog‘lanish ahamiyatsiz ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Xuddi shunday paxta bo‘lagidan uni turli tomonga cho‘zib, o‘quvchilar kichik qo‘lbola ip eshadilar va uni uzishga harakat qiladilar. Buni qilish qiyinroq ekan: bir-biriga eshilish bilan bosilgan tolalar sirpanmaydi va birgalikda uzilishga to‘sqinlik qiladi.

O‘quvchilar yamash va tikish ipi bilan ham xuddi shunday uzilishga sinashni bajaradilar. Bu materiallarning uzilishga qarshiligi yana ham ko‘proq.

Bu sinashlar natijalarini o‘quvchilar muhokama qiladilar, taqqoslaydilar va mantiqiy xulosa chiqaradilar: yamash ipini paxtadan qilingan qo‘lbola ipga qaraganda uzish qiyinroq, tikuv ipini esa uzish yana ham qiyinroq - u eng mustahkam. Bu xulosa o‘quvchilarga savollarga to‘g‘ri javob berishga yordam beradi: nima uchun kiyim tikish, tugmalarni qadash uchun yamash ipi emas, tikuv ipi qo‘llanadi? Qaysi ishlarda yamash ipidan foydalanadilar? (Kiyim detallari mustahkam tikilishi, choklardan uzilmasligi, tugmalar ham mustahkam qadalishi kerak. Yamash iplari paypoqlarni yamash uchun foydalaniladi, bunda iplarning alohida mustahkamligi talab etilmaydi, lekin yamalgan joy yumshoq va ancha mustahkam bo‘lishi kerak).

Keyingi mehnat darslarining birida ip-gazlama iplarning sifat

xususiyatlarini o'rganishni davom ettirish va keyingi amaliy ishlarda ahamiyatga ega bo'lgan jiddiyroq umumlashtirishlar va xulosalar chiqarish foydali. O'qituvchi bolalarga o'ylab ko'rish va quyidagi qoidaning isbotini ko'rsatib berishni taklif etadi: bir xil qalinlikdagi fabrikada ishlab chiqarilgan tikuv ipi yamash ipidan mustahkamroq, keyingisi esa, o'z navbatida, paxtadan eshilgan qo'lbola ipdan mustahkamroq. Buning uchun kichik karton qutichani avval paxtadan qilingan qo'lbola ipga osamiz. Qutichaga asta-sekin qum yoki kichik toshchalar solinsa, ip ko'tarolmay, uziladi. Yuk og'irligini o'zgartirmay, shu qutichaning o'zini boshqa ip – yamash ipi uchun ipga osamiz. Bu ip qo'lbola ipdan mustahkamroq bo'lib, yukni ko'taradi. Yamash ipi uzilmaguncha qutiga qum yoki toshchalar solaveramiz. Xuddi shu ishni tikish ipi bilan takrorlaymiz. U yana ham mustahkamroq ekanligi aniqlanadi. Masala hal etildi: o'quvchilar qo'yilgan savolga javob berishdi.

Bu savolga iplar «kuchi yetmagan» yuklar og'irligini solishtirib, aniqroq javob berib bo'ladi. Bu yuklarni quticha bilan birga haqiqiy tarozida toshchalardan foydalanib har safar o'lchash kerak.

Bu masalani tajriba yo'li bilan echishning yana bir oddiy va ko'rgazmali varianti shunday: o'quvchilar qo'lbola ip, yamash uchun ip, tikish ipining teng uzunlik va bir xil qalinlikdagi bo'laklarini ketma-ket bog'laydilar. Keyin hosil bo'lgan ipning uchlaridan turli tomonga tortishadi. Uzilish qo'lbola ip joyida ro'y beradi: uning mustahkamligi eng kam. O'quvchilar qolgan ipni xuddi shu tarzda tortadilar. endi yamash ipi uziladi. Xulosa bitta: yamash ipining mustahkamligi tikish ipidan kamroq. Oxirgi tajriba xulosalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini tekshirish uchun o'qituvchi ularga shunday savol berishi mumkin: oxigi tajribadagidek uch-to'rt bo'lak turli qalinlikdagi iplarni (masalan, №10, 30 va 50) bog'lab, turli tomonlarga tortilsa, avval eng yupqa ip – elliginchi, keyin o'ttizinchi va hokazo uziladi. Bu ushbu iplar mustahkamligi turlicha ekanligini

anglatadimi? (yo‘q, albatta. Uzilishga mustahkamlikni tekshirish uchun bir xil raqamli iplarni tanlash kerak).

To‘rtinchi sinf o‘quvchilariga tola turiga ko‘ra gazlamalarning bo‘linishini eslatish maqsadida o‘tkazilgan qisqa suhbatdan keyin o‘qituvchi o‘quvchilarga sun‘iy va sintetik tolalardan qilingan bir necha gazlama namunalarini tanlashni taklif qiladi. Bunda o‘quvchilar sun‘iy tolalar (viskoza) sellyulozadan, asosan yog‘och sellyulozasidan, sintetik tolalar esa (kapron, lavsan, nitron va boshqalar) sun‘iy smolalar eritmalaridan olinishini bilib oladilar. Sinf devoriy to‘plamining ko‘rsatilishi bu materialni qiziqarli yetkazib berish, o‘quvchilarga sintetik tolalarning ajoyib xususiyatlari va olimlarning bunday tolalar hamda ular asosida gazlamalar yaratishdagi roli to‘g‘risida gapirib berishga yordam beradi.


O‘quvchilar sun‘iy va sintetik tolalardan gazlama namunalarini to‘plab, ular bilan o‘z gazlama va iplar to‘plamlarini to‘ldiradilar. Ular turli tolalardan – o‘simlik, hayvonlardan olingan, sun‘iy va sintetik tolalardan tayyorlangan gazlamalarni ko‘rib chiqib, gazlamalarning tashqi ko‘rinishi, ularning qalinligi, yuza silliqligi, namlanishdagi holatini qayd etadilar. Ayni vaqtda bu tolalardan qilingan iplarni ham ko‘rib chiqish foydali. Aniqlovchi sifatida gazlama va iplar to‘plamidan foydalanib gazlama namunalarini aniqlash usullarini birgalikda belgilaydilar. Uchinchi sinf o‘quvchilari uchun gazlamalarning ko‘pchilik muhim xususiyatlarini aniqlash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Har bir namunani ko‘rib, ushlab ko‘rib, ular gazlama qalinligi va rangini uning pardozi xususiyatlarini, cho‘ziluvchanligi, zichligi, mayda nuqsonlar borligi va hokazo aniqlaydilar. Olingan ma‘lumotlar va namunalarning sifat xususiyatlarini taqqoslash o‘quvchilarga o‘rganilayotgan gazlama qanday toladan tayyorlanganini, taxminan bo‘lsa ham, aniqlashga yordam beradi. Keyinroq bajariluvchi qo‘shimcha o‘rganishlar natijasida uchinchi sinf o‘quvchilari bu masalani aniqroq hal etadilar.

II sinfda o'quvchilar tanda va arqoq iplarining eng oddiy polotno o'ralishli gazlamalar bilan tanishgan edi. Bunday o'ralishning o'ziga xos maketini ular rangli qog'oz yo'llardan gilamcha «to'qiganda» tayyorlashgan.

III sinfda gazlamalarda iplarning oddiy o'ralishni o'rganish davom etadi: polotno o'ralishga sarja, keyin esa satin (atlas) o'ralishlar qo'shiladi. O'quvchilar bu o'ralishlardagi tanda va arqoq iplari joylashuvi sxemasini yaxshiroq o'zlashtirib olishi uchun ko'rgazma materiali sifatida rangli qog'oz yo'llardan gilamchalardan foydalanish yaxshi.

Sarja va satin o'ralishlarni bajarish usullarini ko'rsatish uchun kichik to'quvchilik romchasi – tanda iplari parallel tortilgan yog'och ramchadan foydalanish mumkin. Moki rolini katta igna bajaradi. Tanda va arqoq iplari, qalin va kontrast rangda tanlanadi.

Kuzatishlar va laboratoriya ishini frontal o'tkazilishini ta'minlash uchun o'quvchilarni aytib o'tilgan barcha uch o'ralishli gazlama parchalari bilan ta'minlash foydali. Ish maqsadi – tanda va arqoq iplarining o'ralish usulini aniqlashdan iborat.



Gazlama bo'laklarini tanda va arqoq iplari bo'ylab aniq kesish hamda tanda va arqoq chekka iplarini katta igna yoki bigiz bilan ajratish maqsadga muvofiq.

Gazlamalarda iplar o'ralishini ko'rib chiqishda uchinchi sinf

o'quvchilarini lupalar bilan ta'minlash foydali.

Buyumlar va alohida detallarni konstruksiyalashtirish va tayyorlashda gazlamalardan to'g'ri foydalanishlari uchun o'quvchilar eng muhim, ko'p tarqalgan va ishlov berish oson gazlamalar bilan tanishishlari kerak. Gazlamalar nimadan va qanday tayyorlanishini bilish, biron-bir narsa tayyorlash kerak bo'lgan gazlamaning asosiy xususiyatlari va sifatini, gazlamada bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarni aniqlay olish ham muhim.

Gazlamalar tayyorlashda tanda va arqoq o'ralishlari to'g'risidagi oldingi bilimlarini o'quvchilar eslashlari uchun ularga to'quvchilik romchasi va unda eng oddiy o'ralishlar bilan qo'lbola gazlamaning tayyorlanishi jarayonini ko'rsatish foydali.

Mehnat darslarida kartondan oddiygina to'quvchilik romchasini tayyorlab, ochiq kontrast rangli qalin iplardan foydalanib polotno o'ralishli gazlamaning kichik bo'lagini to'qish maqsadga muvofiqdir. Gazlama bilan keyingi ishlash uchun uchinchi sinf o'quvchilariga o'zlari ishlatadigan gazlamalarda bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarni aniqlashni o'rganib olish zarur.

O'qituvchi ikkala milklari bo'lgan katta gazlama bo'lagini ko'rsatadi. Bu bo'lakda bo'ylama va ko'ndalang iplar qanday joylashishini ko'rsatib beradi: birinchilari – bo'lak bo'ylab, ya'ni gazlama milklariga parallel, ikkinchilari – ko'ndalang, ya'ni milkdan milkkacha o'tgan. Bu yo'nalishlarni gazlamaning kichik bo'lagida ham, u bo'ylama yo'nalishni ko'rsatib beruvchi milk bilan birga kesib olingan bo'lsa, aniqlash oson.

Milk bo'lmagan kichik gazlama bo'lagi bilan ishlashga to'g'ri kelsachi? Bu holda tanda va arqoq iplari yo'nalishini qanday aniqlash kerak? O'qituvchi o'quvchilardan stollari ustida yotgan gazlama bo'laklarini diqqat bilan qarab chiqishni so'raydi. Bularning qaysi birida milkli gazlama bo'laklari bo'lsa, ularga oddiy o'rganish taklif etiladi – gazlamani avval

milka parallel yo‘nalishda, keyin esa – ko‘ndalang yo‘nalishda tortish. O‘quvchilar tanda iplari yo‘nalishida gazlama arqoq iplari yo‘nalishidagiga qaraganda kamroq cho‘zilishini qayd etadilar. Xulosa chiqariladi: gazlamani ikki asosiy – bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘nalishda cho‘zilishi bo‘yicha unda tanda va arqoq iplari qanday joylashganini aniqlash mumkin. Bu xulosadan foydalanib o‘quvchilar o‘z gazlama bo‘laklarida tanda iplari joylashuvini aniqlab, ularning yo‘nalishini qabul qilingan shartli belgi – uchlarida strelkali to‘g‘ri chiziq kesmasi bilan belgilaydilar.

O‘qituvchi taklifi bo‘yicha o‘quvchilar igna yordamida o‘z bo‘laklari chetlaridan bo‘ylama va ko‘ndalang iplarni tortib chiqaradilar, ularning tashqi ko‘rinishi va cho‘zilishga qarshiligini taqqoslaydilar. Birgalikda xulosa chiqariladi: bo‘ylama iplar (tanda iplari) ko‘ndalang iplarga qaraganda deyarli cho‘zilmaydi va ancha mustahkamroq. Ular ko‘proq eshilgan bo‘lib, yuzasi arqoq ipidek unchalik paxmoq emas, ancha silliq bo‘ladi.


II va III sinf o‘quvchilari mehnat darslaridagi tikish ishlarini bajarishda turli sifat xususiyatlariga ega bo‘lgan gazlamalar bilan ishlaydilar. Bu xususiyatlarni farqlashni ular asta-sekin, kerakli bilimlarni to‘plab borib o‘rganadilar. Masalan, o‘quvchilar o‘zlari ishlatadigan gazlamalarning o‘ng va teskari tomonlarini aniqlash uchun zarur ma‘lumotlarni darrov o‘zlashtira olmaydilar. O‘qituvchi boshida gazlamaning qaysi tomoni o‘ng yuza ekanligini ko‘rsatib beradi. Ba‘zi hollarda buni aniqlash oson, masalan, bosma rasml yoki patli (chit, flanel) gazlamalar bilan ishlashda.

III sinfga kelib o‘quvchilarda mehnat darslari va sinfdan tashqari ishlarda keng ishlatiluvchi gazlamalarning o‘ng va teskari yuzalarini mustaqil aniqlashni o‘rganish va tizimlashtirish uchun yetarlicha bilim va amaliy tajriba to‘planadi. Bu maqsadda o‘quvchilar gazlamalarning o‘ng va teskari yuzalarini aniqlashning ratsional tartib va usullarini o‘zlashtirishlari uchun avval ba‘zi gazlama namunalarini ko‘rsatish foydali. Keyin esa gazlamaning

o'ng va teskarisini aniqlash maqsadida namunalarni o'rganish bo'yicha ish amalga oshiriladi.

O'quvchilar o'qituvchi topshirig'i bilan va uning rahbarligi ostida tolalar turi, vazifasi va pardozi bo'yicha farq qiluvchi gazlama parchalarini tanlaydilar. Gazlamalarni o'rganish va ularning o'ng va teskari tomonini aniqlash bo'yicha keyingi birgalikdagi ish qulayligi uchun o'quvchilar hamma namunalarni bir tartibda joylashtiradilar: ip-gazlama (chit, bumazeya), zig'ir tolali (polotno), jun (movut, yaxshisi patli), ipak (tabiiy ipak) va sintetik gazlama.

Bu ish bajarilib, birgalikda tekshirilgach, o'qituvchi yangi topshiriq beradi: tanlab olingan namunalarda gazlamaning o'ng va teskari tomonini aniqlash va uni asoslab berish. Namunalarning o'ng va teskari tomonlari tashqi ko'rinishini taqqoslashning natijalarini birgalikda muhokama qilishdan so'ng o'quvchilar xulosalar chiqarishadi:



- 1) gazlama o'ng yuzasi odatda ancha sof va silliq yuzaga ega, unda teskari yuzaga nisbatan tukchalar va tugunchalar kamroq;
- 2) rasmlı gazlamalarda, masalan, chitda, o'ng yuzadagi rasm ancha ochiq va aniq bo'ladi (19.1-rasm);
- 3) yaltiroq yuzali gazlamalarda (atlas, satin) o'ng tomoni yaltiroq,

teskari tomoni – xira bo‘ladi;

4) to‘quv rasmi (tanda va arqoq iplari o‘ralishi rasmi) gazlamaning o‘ng yuzasida osonroq farqlanadi (19.2-rasm);

5) patli gazlamalarda (bumazeya, baxmal) o‘ng yuza patlari uzunroq;

6) gazlama milki o‘ng yuzada soffroq, tekisroq bo‘ladi.

Kuzatishlarini xulosalab o‘quvchilar gazlamalar o‘ng va teskari yuzalarini farqlay olish zarur bo‘lgan hollarni eslab misollar keltiradilar.

2-BOB

BOSHLANG'ICH SINF MEHNAT DARSLARIDA GAZLAMA TURLARI VA ULARDAN TURLI BUYUMLAR YASASHNING USUL VA VOSITALARI

2.1. Boshlang'ich sinf mehnat darslarida gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasash

IV sinfga kelib odatda o'quvchilarda gazlamalar, ularning turli turlari va navlari to'g'risida ko'pgina alohida tasavvurlar to'planadi. Dasturda ko'zda tutilgan «Turmush va texnikada gazlamalar» suhbatining o'tkazilishi bu alohida tasavvurlarni umumlashtirish, o'quvchilar bilimlarini tizimga solishga yordam beradi.

Bu suhbatga tayyorlanish jarayonida o'quvchilar material to'plash, rasmlar tanlash, to'plamlar tuzish bo'yicha ta'limiy jihatdan qiziqarli mustaqil ishni amalga oshirishlari mumkin. Suhbat o'tkazilishidan bir hafta oldin o'quvchilarga uning mavzusini e'lon qilish, uning maqsadlarini tushuntirib, o'quvchilarga unga tayyorlanishni topshirish foydalidir.

O'qituvchi tomonidan suhbat jarayonida qo'yiluvchi asosiy masalalarni aytish va o'quvchilarga o'z savollarini tayyorlashni topshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktab yoki shahar bolalar kutubxonasidan gazlamalar, ularning ishlab chiqarilishi, turmush va texnikada foydalanishi to'g'risida hikoya qilinuvchi kitoblarni olishni maslahat berish mumkin.

Uchinchi sinf o'quvchilariga suhbat uchun materiallarni to'plashning yana bir yo'lini tavsiya qilish mumkin – uyda kattalar bilan suhbatlashish, ular yordamida gazlamalardan foydalanishning qiziqarli hollarini yaqqol ko'rsatuvchi materiallar va gazlama namunalari tayyorlash. O'quvchilardan

birontasi sinfga fazogirlar suratini olib kelib, insonning fazoga uchishi uchun skafandrlar gazlamadan tayyorlanishini gapirib berishi mumkin. Boshqasi parashyutchi suratini ko'rsatib, parashyut ipak gazlamadan tikilishini aytadi.

Uchinchi o'quvchi esa o'rtoqlariga bir parcha sun'iy charm yoki mo'ynani ko'rsatib, bu matolar asosini gazlama tashkil etishini isbotlab beradi. Ota-onasi bayroqlar suratini ko'rsatib, ular ham gazlamadan tayyorlanishini gapirib berishni maslahat bergan bola ham topiladi.

Tekstolit – asosi maxsus smola bilan shimdirilib, ko'p qatlamdan tuzilgan va yuqori haroratda presslangan gazlamadan iborat plastik massadan kichik detal – shesterenkaning ko'rsatilishi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

Suhbat vaqtida o'quvchilar inson tomonidan gazlamalarning turmush va texnikada qo'llanishiga ko'plab misollar keltiradilar.

Turmushda gazlamalardan foydalanish:

1. Kiyim (uy, ish, chiqish, yozgi, qishki, mavsumaro, o'quvchilar formasi va hokazo);
2. Ichki kiyim (ayollar, erkaklar, bolalar ichki kiyimi);
3. yostiq anjomlari;
4. Sochiqlar;
5. Oshxona anjomlari (dasturxon, sochiqlar);
6. Bosh kiyimlar;
7. Poyabzal;
8. Yumshoq va yarimyumshoq mebellarni qoplash;
9. Uy anjomlari (pardalar);
10. O'yinchoqlar (yumshoq o'yinchoqlar, qo'g'irchoq kiyimlari);
11. Xo'jalik anjomlari (sumkalar, xaltalar, chang artish, pol yuvish uchun lattalar va hokazo).

Texnika va ishlab chiqarishda gazlamalardan foydalanish:

1. Maxsus ishlab chiqarish kiyimi;

2. O‘rash materiallari (doka, kolenkor, lederin);
3. Parashyutlar;
4. Fazogirlar skafandrlari;
5. Changyutgich filtrlari;
6. Metro, avtobus, samolyot o‘tirg‘ichlari qoplami (sun‘iy charm asosi – gazlama);
7. Kinoteatr ekranlari;
8. Sayyohlar palatkasi va yotoq xaltalar;
9. Plastmassa – tekstolit.

Gazlamadan tayyorlangan buyum detallari odatda ip bilan tikiladi. Keyingi yillarda tikuvchilik ishlab chiqarishida detallarni yopishtirishdan ko‘proq foydalanib, buning uchun maxsus yyelim va moslamalardan foydalaniladi. Karton va muqovalar ishlab chiqarishida ham gazlamani qog‘oz va karton bilan yyelimlanishini kuzatish mumkin. Bunda maxsus muqovalash gazlamalari – kolenkor, lederin, granitoldan keng foydalaniladi. Bu matolar oddiy ip-gazlama matolardan, tanda va arqoq iplari orasidagi hamma g‘ovak va oraliqlarni to‘ldiruvchi maxsus tarkiblar bilan shimdirilgani bilan farq qiladi. Shuning uchun bu gazlamalarning teskari tomoniga yyelim tarkibi surtilganda, yelim o‘ng yuzaga o‘tmaydi va uning ko‘rinishini buzmaydi. Yyelim tarkiblar bilan ishlov berilgan gazlamalar deyarli cho‘zilmaydi, namlanishda shakli buzilmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mehnat ta‘limi darslarida gazlamalarni yyelimlash hamda gazlamadan detallarni qog‘oz va kartonga yopishtirish xususiyatlari to‘g‘risida dastlabki tushunchalarga ega bo‘ladilar. Ba‘zi o‘quv buyumlarni tayyorlashda o‘quvchilar gazlamadan detallarni qog‘oz va kartonga yopishtiradilar, masalan, gazlama to‘plamlarini tuzish va joylashtirish, gazlamadan applikatsiyalarni o‘rnatish, kitob muqovalarini tayyorlash, qo‘g‘irchoq teatri personajlarini tayyorlash va hokazolarda.

Bu amaliy masalalarni o'quvchilar ongli hal etishlari, ularga kerakli ahamiyat berishlari uchun ular gazlamadan detallarni boshqa materiallarga yelimlash jarayonida nima ro'y berishini aniq tasavvur etishlari kerak.

Mehnat darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ishlov beriluvchi materiallarga qog'oz, karton va gazlamalardan tashqari o'simliklarning turli qismlari (shoxi, barglari, gullari, ildizi, po'sti, urug'i, mevasi); foydali qazilmalar (kvarts qumi, loy, minerallar); yog'och (archa, sosna, qayin, lipa, ryabina); metallar (temir, mis, alyuminiy); plastmassa (polietilen, tekstolit, kapron) va boshqalar.

Bu materiallardan ba'zisini, masalan o'simlik qismlarini, o'quvchilar tabiatga sayr qilish paytida teradilar, boshqalarini, masalan, fanera, metallar, plastmassalarni maktab bolalari tayyorlanmalar va yarimfabrikatlar shaklida oladilar.

Erta kuzda o'qituvchi o'quvchilarga tabiiy materiallarni to'plash, ishlov berish va saqlashni yaxshilab tushuntiradi. Bolalarga o'simliklar shoxi, barglari, gullari, po'stlog'i, mevasini terish; kvarts qumi va loy tayyorlashni topshiradi. Tushuntirish ishida o'qituvchi mamlakatimizda tabiatni qo'riqlash to'g'risida qonun mavjudligi, bu tabiiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni talab etishini aytib o'tadi.

Bu qonunning asosiy qoidalarini qayd etib, o'qituvchi o'rmonda faqat yerga tushgan materiallarnigina terish kerakligini eslatadi. Daraxt va butalarni sindirish, o'rmonni ifloslashtirish, o'simlik shoxlari, po'stlog'i, barglarini kesish mumkin emas. O'qituvchi tabiiy materiallarni qanday to'plash haqida maslahatlar beradi. Masalan, kvarts qumini daryo vodiylarida quruq holda, loyni – nam holida yig'ish kerak; barglar va gullarni botanik pressda quritish lozim. O'qituvchi o'simliklar va ularning qismlarini botanik pressda qanday quritishni batafsil tushuntiradi, pressiz qanday quritish mumkinligini ko'rsatib beradi.

Tajriba ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ta'limning birinchi bosqichida eng oddiy va qiziqarlisi tabiiy materiallardan dekorativ ishlardir. Bolalar turli o'yinchoqlarni tayyorlash ishini katta intilish bilan bajaradilar. Birinchi sinf o'quvchilarida tabiiy materiallar bilan ishlashga qiziqish uyg'otish uchun ularga xalq o'yinchoqlari namunalarini ko'rsatish juda foydalidir.

Yong'oqlar, yong'oq po'stlog'i, loy, shoxlardan o'yinchoqlar tayyorlashdan oldin o'qituvchi III-sinfda kuzatishlar tashkil etib, uning jarayonida o'quvchilar tosh, loy, yog'ochdan bajarilgan xalq o'yinchoqlari namunalari bilan tanishadilar.



Kuzatishlardan oldin laboratoriya ishi o'tkaziladi. O'qituvchi navbatchilar bilan birgalikda har bir partaga qurigan loy, yog'och parchasi, kichik toshchalar tarqatib, birinchi sinf o'quvchilariga bu materiallarni suv bilan ho'llash, qaychi uchi bilan tirnab ko'rish va akvarel bo'yoqlar bilan bo'yashni taklif etadi.

O'quvchilar tosh suvda ho'llanmasligi, kesilmasligini, loy suvda

ho'llanib bu holda oson kesilishini, quruq loy bo'yoqlar bilan ranglanishini; yog'och suvda bir oz ho'llanishi, nisbatan oson kesilishi va yaxshi ranglanishini aniqlaydilar.

O'quvchilarning aytganlarini umumlashtirib, o'qituvchi tosh, loy va yog'ochdan xalq ustalari turli o'yinchoqlarni tayyorlashlarini aytadi. O'yinchoq namunalarini ko'rsatib o'qituvchi rangli toshlardan ayiqchalar, itlar, bug'ular, otlar figurachalarini yaratuvchi ural o'ymakorlari mashhurligini, loydan o'yinchoq - hushtakchalar tayyorlovchi oposhnenlik ustalar ular bilan bellashishini aytib beradi. Loydan otlar, bug'ular, qushlar, ertak qahramonlari figuralarini yasab, olovda quritib, bo'yaydigan dimkovlik ustalar shuhrati uzoqlarga ketgan. Ivanovlik ustalar yasagan quvnoq matryoshkalar, o'yinchoqlar xalq mehriga sazovor.


Kuzatishlar jarayonida bolalarga xalq o'yinchoqlari namunalarini diqqat bilan qarab chiqish va savollarga javob berish topshirig'i beriladi: 20-rasmda tasvirlangan o'yinchoqlar qanday nomlanadi? Har bir o'yinchoq qanday materialdan tayyorlangan? Tosh, loy va yog'ochdan o'yinchoqlar qanday tayyorlanadi? Qaysi o'yinchoqlar ayniqsa yoqadi va nima uchun? Bolalar qaysi o'yinchoqlarni yasashni istar edilar?

Bolalarning kuzatishlarini umumlashtirib, o'qituvchi xalq o'yinchoqlarida xalq ertaklaridagidek ko'p kulgili quvnoq detallar, aqlli ifodalangan kuzatishlar borligiga o'quvchilar e'tiborini qaratadi. O'yinchoqlar hamma vaqt ham haqiqiy insonlarga va hayvonlarga o'xshayvermaydi, biroq hamma vaqt juda ifodali va dabdabali. Har bir o'yinchoq o'ziga yaxshi va takrorlanmas. Biroq yaratiluvchi o'yinchoqlarning turli-tumanligiga qaramay xalq ustalarini bir narsa yaqinlashtiradi, ularning hammasi juda kuzatuvchan va ishlov beriluvchi material xususiyatlarini yaxshi bilishadi, uning go'zalligini ochib bera olishadi. Ilgari xalq ustalari tomonidan tayyorlanuvchi buyumlarning ko'pchiligi ajoyib o'yinchoq bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda

ular kichik dekorativ haykalchalar bo'lib, xonadonlarni bezatib turadi.

Bunday haykalchalarning har biri katta qiymatga ega, chunki u usta qo'li bilan yagona nusxada yaratiladi. Xalq ustalarining tasviri vositalari sodda, quvnoq, ochiq, ular ko'p asrlar davomida xalq tomonidan tanlab olingan va sinalgandir. Shu sababli har bir xalq o'yinchog'i biz uchun taqlid qilishga namuna bo'lib xizmat qila oladi.


Ikkinchi sinf o'quvchilari yong'oqlardan shoxchalar va boshqa materiallarni qo'shib ko'pgina qiziqarli buyumlar tayyorlaydilar (22-rasm). Shahardan tashqariga, o'rmon, saylgohlar yoki bog'larga sayr qilishda ular turli mevalar, shu jumladan yong'oqlarning ham, o'sishi va yetilishini kuzatadilar. Bolalar dub daraxti yong'oqlari sentyabrda yetilishi va sarg'aygan barglar bilan birgalikda yerga tushishini bilib oladilar. O'quvchilar yerga tushgan yong'oqlarni terib olib, mehnat darslariga olib keladilar va ular bilan turli tajribalarni o'tkazadilar. Kuzatishlar vaqtida o'quvchilarga yong'oqlarni diqqat bilan ko'rib chiqib savollarga javob berish topshirig'i beriladi: yong'oqlar qanday shakl va kattalikda bo'ladi? Ular qanday rangda? yong'oq qanday qismlardan iborat? Ulardan mehnat darslarida nima tayyorlash mumkin? Epidiaskop orqali namoyish etiluvchi yong'oqlardan tayyorlangan turli o'yinchoq rasmlarini ko'rib o'quvchilar har bir alohida holda yong'oq o'lchami, shakli va rangi u yoki bu personaj xarakterini aniqroq ifodalashi, uni tayyorlashda qaysi qo'shimcha materiallardan foydalanish zarurligini aytadilar. Kuzatishlar jarayonida bolalar o'yinchoqlar yasashda yong'oqlar bilan bir qatorda shoxchalar, patlar, ryabina mevalari va hokazo bo'lishi kerakligini aniqlaydilar.



O'qituvchi yong'oqlar bilan ishlashda turli asboblardan foydalanilishini aytadi: pichoq - kesish uchun; arracha – aralash uchun; parmacha va bigiz – teshish uchun. O'qituvchi pichoq va arracha yordamida toza yong'oqlarni kesish, parmacha va bigiz bilan tuynuk hosil qilish usullarini ko'rsatib beradi (21-rasm, 5 va 6). Keyin xuddi shu ishlarni o'qituvchi eski yong'oqlar bilan bajarib ko'rsatadi. Kuzatishlar jarayonida birinchi sinf o'quvchilari toza yong'oqlarni eskilariga qaraganda ishlov berish ancha osonroq ekanligini bilib oladilar. Pichoq va arracha bilan kesish, parmacha va bigiz bilan teshish ishlari birinchi sinf o'quvchilari uchun xavfsiz emas, shuning uchun amaliy topshiriqlarni bajarishda hamma yig'ish jarayonlarini o'quvchilar loy va tez quruvchi yyelim yordamida bajaradilar.

O'quvchilar detallarni plastilin, loy va BF-2 hamda PVA yyelimlari

yordamida birlashtirish tajribalarini amalga oshiradilar. Bolalar detallarning eng oddiy, lekin mustahkam bo'lmagan birlashtirilishi – plastilin bilan, ularning mustahkamroq biriktirilishi – loy bilan va eng mustahkam va ishonchli biriktirish tez quruvchi BF-2 va PVA yyelimlari yordamida amalga oshirilishini aniqlaydilar.




Kuzatishlar va oddiy tajribalar asosida birinchi sinf o'quvchilari yong'oqlarni kesish, arralash, teshish, detallarni plastilin, loy, BF-2 va PVA yyelimlari yordamida biriktirish mumkinligini bilib oladilar. Yyelimlangan shoxchalar yordamida yong'oqlardan alohida detallarni biriktirishda o'quvchilar diqqatini dastlab shoxchalarni yo'nish, keyin yyelim surtib, oldindan ochilgan teshiklarga zich joylashtirish kerakligiga qaratish kerak.

yong'oqlardan o'yinchoqlar yasash bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar predmetlarning fazoda joylashuvi va predmet qismlarining bir-

biriga nisbatini kuzatadilar, harakatda qushlar va odamlar xarakterini yaxshi aks ettirish usullarini aniqlaydilar.

Yong‘oq po‘chog‘iga boshqa tabiiy materiallarni qo‘shib birinchi sinf o‘quvchilari ko‘pgina qiziqarli o‘yinchoqlar tayyorlashi mumkin.



Yong‘oqlarning o‘sishi va rivojlanishini kuzatish imkoniyati bo‘lmasada, ularning po‘chog‘ini to‘plash qiyin emas.

O‘qituvchi bolalarni o‘yinchoqlar tayyorlash uchun faqat yaxshi po‘choq yarashi to‘g‘risida ogohlantiradi, shuning uchun yong‘oqlarni ikkala po‘choq bo‘lagi butun qolishi uchun pichoq yordamida ehtiyotkorona sindirish kerak bo‘ladi. Bu ishda birinchi sinf o‘quvchilariga kattalar yordam beradi. Yong‘oq po‘chog‘ini kuzatish va ishlov berish bo‘yicha eng oddiy tajribalar jarayonida o‘quvchilar savollarga javob beradilar: yong‘oqlar qanday shakl va rangda bo‘ladi? Ular dub daraxti yong‘oqlaridan nima bilan farq qiladi? yong‘oqlarni qaysi asboblarda yordamida ishlov berishi mumkin? yong‘oq po‘chog‘idan qanday o‘yinchoqlar yasash mumkin?

Kuzatishlar jarayonida bolalar yong‘oqlar turli shakl va o‘lchamlarda bo‘lishini bilib oladilar. yong‘oqning yumshoq mag‘zi olingach, bo‘sh

po'stlog'i qoladi. Uni ehtiyotkorona sindirishda, aylana qayiqchilarga o'xshash ikki qism ajraladi. O'qituvchi bolalarga yong'oq po'stlog'ini bigiz bilan teshishi, pichoq va arracha bilan ishlov berish, BF-2 va PVA yelimlari bilan yelimlash, lak bilan qoplash usullarini ko'rsatib beradi.

yong'oq shaklinining o'zi undan qanday o'yinchoqlar tayyorlash mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, tozalangan yong'oq po'chog'iga dasta yasalsa, savatcha hosil bo'ladi; parusli machta o'rnatilsa, kemacha hosil bo'ladi; ikki po'choq bo'lagini biriktirib, ularga qog'oz, loy, shoxchalardan oddiy detallarni qo'shib jo'jacha, baliqcha, ukkicha yasash mumkin. Yong'oq po'chog'idan o'yinchoqlar yasash jarayonidagi kuzatishlar va tajribalar paytida o'quvchilar predmetlar kattaligi, shakli, rangi, ularning fazoda joylashuvi, buyumlarning ishlov berilishi, o'rnatilishi va pardozi to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlaydilar.

Bolalarning yong'oq po'chog'idan kemachalar, kolyaskalar, tarozilar tayyorlashi ayniqsa qimmatli. Bu o'yinchoqlar bilan o'quvchilar qo'shimcha kuzatishlar va tajribalar o'tkazadilar. Kemachani suvda sinab ko'rib, bolalar o'yinchoq haqiqiy kemadek suzishiga ishonch hosil qiladilar; kolyaskani yurgizib, o'quvchilar u haqiqiydek harakatlanishini qayd etadilar; ba'zi predmetlarni qo'lbola o'yinchoq tarozida o'lchab bolalar haqiqiy tarozi ishlashi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

2.2. Gazlama bilan ishlashda ko'rsatishlar, kuzatishlar va tajribalarning vazifasi

O'zbekistonda tikuvchilik sanoatida keng iste'molchilar ommasi ehtiyoji va didini qondiradigan xilma-xil kiyimlar ishlab chiqarilmoqda. Ommaviy ishlab chiqarish bilan bir qatorda yakka buyurtma tikish korxonalari, kichik va o'rta xususiy korxonalar aholining kiyimga bo'lgan ehtiyojini qondirmoqda. Bu sohani rivojlantirishda xizmat qilishga mutaxassislarni oliygohlarda, o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlari tayyorlanadi. Ularga maxsus fan sifatida "Tikuvchilik buyumlarini loyixalash va modellash asoslari" fani o'rgatiladi.. Kiyim asosiy andozalarini tayyorlash, modellar yaratish, asosiy andozalardan model andozalarini chiqarish va unga bezaklar tanlash shu fanning asosiy maqsadidir.

Loyixalash - bu murakkab ijodiy jarayon. Loyixalashda har qanday buyumning, jumladan, kiyimning ham loyixasini ishlab chiqish jarayonidan iborat. Kiyimni loyixalash deganda, kiyimni tashkil etadigan detallar va materiallar kompleksi, shuningdek, ularni o'zaro ulab-tikib, muayyan razmerdagi va formadagi yaxlit buyum holiga keltirish usullari, vositalari tushuniladi. Loyixalash jarayonida buyumning xajmli detallarini tekislikdagi tekis tasvirini hosil qilishdan iborat bo'ladi. Detallarning razmeri, soni va shakli ular yig'ilganda xuddi shu razmer va ko'rinishini beradi.

Kiyimlarni loyixalashda gavddadan o'lchov olish qoidalarini va o'lchovlar asosida buyum asos chizmasini chizishni o'rgatiladi. So'ng chizmadan andoza chiqarib tayyorlash qoidalarini o'rganiladi. Kiyimni loyixalash bilan turli muassasalar shug'ullanadi. Bular - modalar uyi

tikuvchilik korxonalarining eksperimental sexlari, maxsus konstruktorlik byurolari, ilmiy-tekshirish institutlari va laboratoriyalardir.

Kiyimlarni modellashda kiyim modelini ijod qilish va asosiy andozadan model andozasini tayyorlash yo'llarini o'rgatadi. Bunda asos chizmasiga eskiz bo'yicha model chiziqlari kiritilib, yangi model andozasi hosil qilinadi.

Kiyimlarni badiiy bezashda esa kiyimga turli bezaklarni kiyim turiga va vazifasiga qarab berib, ularni bezatish yo'llarini o'rgatadi. Bunda kiyimning assortimentiga, gazlamasiga, kiyimning kimga mo'ljallanganligiga qarab bezak elementini tanlash ijodiy jarayon ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Kiyim insonning ilk rivojlanish davridan boshlab doimo inson bilan birga rivojlanib keldi. Kiyimning dastlabki ko'rinishlari ibtidoiy davrida odamlarning qabila bo'lib yashagan vaqtiga to'g'ri kelgan. Bu davrda daraxt barglari, poxollar, xayvon terilarini tanaga beldan bog'lab yurishgan. Kiyim insonning ijtimoiy hayoti uchun mehnat qilishi, ongining o'sishi tufayli rivojlanib bordi. Kiyimning keyingi ko'rinishi turli o'simlik va xayvonot maxsulotlaridan to'qilgan oddiy gazlamalarni tanaga o'rab yurishdan iborat edi. Qadimgi Gresiyada erkaklar kiyimi ikki qismdan - xiton va gimatiydan iborat bo'lgan. Xiton - bu ichki kiyim bo'lib, jun yoki zig'ir tolali gazlamadan tayyorlangan.



Erkaklarning gimatiy kiyimi

Gazlamalar bo'y ipi bo'ylab ikkiga bukilib, elkada ikkita to'g'nog'ich - fibula bilan mahkamlangan. Xiton bilan ko'chada yurish uyat hisoblangan. Erkaklar biror yumush bilan ko'chaga chiqayotganda ustki kiyim - gimatiyni kiyib olishgan. Gimatiy to'g'ri to'rtburchak shakldagi, 1,7x4m o'lchamdagi gazlama bo'lagidan iborat bo'lib, uni elka ustida bog'lab yoki elkaga tashlab quyib, gavdaning tabiiy go'zalligi va harakat bemalolligini ko'rsatadigan va unga halaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirib drapirovka qilib qo'yilardi.

Ayollar kiyimi ham erkaklar kiyimiga o'xshab ikki qismdan iborat bo'lib, ular kiyimi yopiqroq va uzunroq bo'lgan. Ichki kiyimi - xiton burmalangan gazlama bo'lagi elkada fibulalar (to'g'nog'ichlar) bilan mahkamlangan. Xiton oq, sariq, qizil rangdagi jun va zig'ir tolali gazlamalardan tayyorlangan. Xiton uy kiyimi hisoblanib, unda ko'chaga chiqish odatlanilmagan. Ayollar ustki kiyimi peplos deb atalardi. Uning

shakli va drapirovka qilinishi xitonga o'xshab ketardi, faqat taxlamalari soni ko'proq va uzunroq edi. Peplos 1,5x3,5 m o'lchamdagi gazlama bo'lagidan iborat bo'lgan.



Ustki kiyim - peplos

Qadimgi greklar va rimliklar bunday burmalangan kiyimlarni ustalik va yuqori did bilan bajarganlar. Hozirgi kunda bunday burmalangan kiyimlarni Hindistonning milliy kiyimlarida ko'rish mumkin.

Burmalangan kiyimlar tanani har xil no'maqbul ta'sirlardan yaxshi saqlamaslik bilan birga, mehnat qilishga ham noqulaylik tug'diradi. SHuning uchun bunday kiyim o'rnini bichiqli kiyimlar egallay boshladi.

Unda old bo'lak, ort bo'lak, eng qismlar paydo bo'ldi.

Avvaliga englar old va ort bo'laklar bilan birgalikda bichilgan bo'lsa, faqat XIII asrga kelib birinchi marta o'tkazma englar paydo bo'ldi. Bu englar hamda yoqa har kuni ertalab kiyimga tikib qo'yilar, kechga borib ular so'kib tashlanar edi, chunki eng bilan kiyimni echish noqulaylik tug'dirardi. XIII asr oxirlarida taqilmalarning paydo bo'lishi natijasida eng va yoqa kiyimga doimiy tikib qo'yilgan.

Kiyimning ko'rinishida, gazlamasida, bichishda o'zgarishlar tez o'sdi. Kiyimning gavgaga yopishgan, etaklari hajmli, qavatli ko'rinishlari, gazlamalarning atlas, barxat, movut kabi turlari paydo bo'ldi. Evropa mamlakatlarida feodalizm mustahkam qaror topgan o'rta asrlar



3-расм

Feodalizm davri kiyimi

davrida maxsus estetik ideal va shunga mos kostyum xarakteri tarkib topdi. Odamzot gavdasining go'zalligidan zavqlanish nomunosib va gunoh ish hisoblanar, shuning uchun gavdani qo'poldan-qo'pol, og'ir, keyinchalik esa cho'ziq shakllarga o'rab tashlar edilar. Tor, yuqori qismi qator-qator murakkab taxlamalardan iborat, orqa etagi juda uzun, ko'ylak juda baland konussimon bosh-kiyim va nihoyatda cho'ziq poyafzal bilan birga qo'shilib, qad-qomat ko'rinishini o'zgartirib yuborardi.

O'rta asrlarda kostyum gavdani turli vositalar (shnurlar, korsetlar) yordamida qattiq qisib, tabiiy shakldan uzoqlashtiradigan "g'ilof" sistemasi rivoj topishini boshlab berdi.

Uyg'onish davrida (XUI-XUII asrlar) estetik dunyoqarashni qayta baholash yuz berdi, ya'ni gumanistik ideologiyalar shakllandi. Bu buyuk geografik kashfiyotlar, ilm va texnika yutuqlari davri, san'at davri edi. Bu Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo kabi ulug' allomalar davri edi.


Bu davrda ayollar kiyimi juda noqulay - qattiq, harakatga halaqit beradigan xolatda edi. Ikki qavatli kiyim bir vaqtda kiyilib, beldan etak qismiga karkas yordamida konussimon shakl ko'rinishida bo'lgan. Yubka qismida hech qanday burmalar bo'lmay, karkasga tortib qo'yilgan. Ko'ylakning yuqori qismi juda tor bo'lib, pastga tomon burchak shaklida tugallangan edi. Bu davrda ayollar belni xipcha qilib ko'rsatish maqsadida korset kiyishgan.



Erkaklar kiyimi esa sipo va sodda ko'rinishda bo'lgan. Kashtali ko'ylak, keng kamzul, triko va kalta shar shakliga o'xshab ketuvchi pantolonlar kiyilgan.

XVIII asr (Barokko davri)larga kelib kiyimda xashamat-dorlik juda avj oldi. Bu davr kiyim shakllarining nazokatligi, murakkabligi bilan va g'aroyib jimjimadorligi bilan farq qiladi. Kostyumda gavdaning bel qismi, ko'krak, bo'ksa ko'zga tashlanib turadi (6-rasm). Kostyum engil, nozik bo'lib, boshdan-oyoq gul tikilgan, tyuldan, gazsimon materialdan, to'qima to'rdan, "ko'pchitib" qo'ygandek bezatilgan.

Ayollar kiyimi juda tor bo'lib, uning ostidan korset kiyilgan. Ko'ylak old qismi juda ochiq, englari tor, past qismi to'rlar bilan bezatilgan, ko'ylakning etak qismi krinolin hisobiga keng turgan. Ko'ylak bezagiga alohida e'tibor berilgan. Ustki ko'ylak ko'krak qismida bantlar bilan maxkamlangan. Bantlar ketma-ketlikda joylashgan, ya'ni avval kattalari, bel tomon esa mayda bantlar maxkamlab qo'yilgan.



Uyg'onish davri kiyimi

Bu davr erkaklar ichki kiyimlari kamiza, ustki kiyimi plash esa tabar deb yuritiladi. Tabarlarda yon chok bo'lmagan va bu kiyim juda e'zozlangan. Ayollar kiyimi ham ikki qavatli kamiza va kotta qismlardan iborat bo'lgan.



Barokko davri kiyimlari

Erkaklar kiyimida ham xashamatdorlik sezilib turardi. XIX asrdagi evropacha kostyum tarixi 1789 yildagi fransuz burjua revolyusiyasining bo'ronli voqealaridan boshlandi. Yangi davrga kapitalizmning, fan va texnikaning gurkirab taraqqiy etishi, yangi-yangi materiallar, tikuv mashinasi paydo bo'lishi xarakterli edi.



Erkaklar ustki
kiyimi



Ayollar bayram
kiyimi

Kostyumda qator-qator shakllar, siluetlar, karkaslardan (korset va krinolindan) xalos bo'lish va gavdani erkin

ko'rsatish sekin-asta sezila boshlandi. Erkaklar tik yoqali oq ko'ylak, galstuk yoki sharf, frak kiyishgan .

Ayollar kiyimi oddiy va sipo ko'rinishga ega edi. Kostyumning bel qismi yuqoriroqda bo'lib, yubka qismi esa shleyf, yumshoq taxlamalardan iborat bo'lgan. Tantanali kiyimlar juda ochiq va uzun shleyfli qilib tikilgan .

XX asr (Ampir davri) shakl va materiallar tanlashda qat'ian xizmatboplikni, soddalikni, bimalollikni o'z prinsipi deb e'lon qiladi. Kostyum korset, krinolin kabi sun'iy narsalardan gavgdani xalos qiladi, ayol gavgdasini ozod etadi, bashanglik haqidagi eskicha tasavvur o'zgaradi. Kostyumning asosiy intilishi odam xarakatlariga maksimal darajada mos bo'lishdan, odamni ezmaslik, uni o'ziga bo'ysundirmaslikdan, balki uning hayotiy manfaatlari izidan borishdan, individuallikni ro'yobga chiqarishdan iborat bo'ladi .



Ampir davridagi
erkaklar kiyimi



Ampir davridagi
ayollar kiyimi

XX asr dunyodagi bo'layotgan voqealar kiyimga o'z ta'sirini o'tkazadi. 20-yillarda kiyimni ixchamlashtirish, bo'yini kaltalashtirish, etaklarini toraytirishni, oddiy bichimligini kiyimlarda kurish mumkin. SHu davrning taqchilligi va sinflanishi, tenglashuvi asosan oddiy matolardan ixcham ko'rinishdagi kiyimlar tayyorlanishiga sabab bulgan. 30-40-yillardan so'ng kiyimni kiyilish o'rniga qarab uslub bo'yicha kiyiladigan bo'ldi, ya'ni klassik, sport, fantaziya uslubi va keyinchalik erkin uslub paydo bo'ldi.

Klassik uslubda - rasmiy ko'rinishda ko'chalik kiyimlar tushunilsa, sport uslubida faqat sport mashg'ulotlari uchungina emas, balki harakat qilish uchun, turli ishlar uchun, aktiv dam olish uchun qulay kiyimlar, fantaziya uslubda esa bayram, tantanali kiyimlar ko'zda tutilgan. 70-80-yillarda ko'proq erkin uslubdagi kiyimlar paydo bo'lib, ularda klassik, fantaziya uslublari o'z ko'rinishini beradi.

Kostyumning obrazli ifodaliligi endilikda ilgaridan boshqa vositalar yordamida erishiladi, ya'ni siluet tez-tez almashib turadi, chiziqlar injiq va doimiy emas, gavda bilan kostyumning o'zaro bog'likligi dinamikada ifoda topadi. Kiyim bir qarasangiz gavdaga yopishib, gohida unga salgina tegib, ba'zan esa gavdadan juda qochib turadigan bo'ladi. Kostyumni shakllantirishda xizmatboplikni asos qilib olgan dizayn, ya'ni sanoat buyumlarini badiiy loyixalash aktiv rol o'ynaydi.

Kiyimni loyihalash kiyimga qo'yiladigan talablardan boshlanadi. Har qanday tikuvchilik buyumlariga talablar qo'yiladi. Kiyimga 2 xil talab qo'yiladi:

Iste'molchining talabi va ishlab chiqarish talabi.

Iste'molchining talabi o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

1. Gigienik talab.
2. Ekspluatasion talab.
3. Estetik talab.

G i g i e n i k talablar deganda shuni tushuniladiki, kiyimdan foydalanganda kiyim odam sog'lig'iga zarar etkazmasligi, erkin harakatlanish vaqtida halaqit bermasligi kerak, ya'ni yozda kiyiladigan kiyimlar engil, havo o'tkazuvchan bo'lishi, quyosh nurini qaytaruvchan bo'lishi, namni shimuvchan bo'lishi kerak. Bunda gazlama asosiy rol o'ynaydi. Kiyim tabiiy tolali gazlamalardan tikilishi talab qilinadi. Masalan: paxta, ipak, jun, zig'ir tolali gazlamalar juda yaxshi, gigienik

hisoblanadi.

Qishki kiyimlar odam tanasidan chiqqan issiqlikni saqlovchi, engil va qulay bo'lishi kerak. SHuning uchun qishki kiyimlar ko'pincha jun tolali gazlamalardan tikiladi. Kiyimga ishlov berishda iloji boricha engil bo'lishiga, bichimi esa qulay bo'lishiga e'tibor berish kerak. Kuzgi va bahorgi kiyimlar esa haroratning pastligi va yog'ingarchilik ko'pligiga asoslanib ko'proq sintetik tolali gazlamalardan tikiladi.

E k s p l u a t a s i o n talablar deganda kiyimning vazifasiga va foydalanish sharoitlariga mosligi, qulayligi, chidamliligi, ishonchliligi, formasining barqarorligi tushuniladi. Kiyilish davrida kiyim turli mexanikaviy va biologik ta'sirlarga duch keladi, nam vaqtida buraladi. Kiyim ana shu ta'sirlarga chidamli bo'lishi kerak.

Bunday ta'sirlardan kiyim sitiladigan, cho'ziladigan, rangini o'zgartiradigan yoki g'ijimlanadigan bo'lsa, u uzoqqa chidamaydi. SHuning uchun gazlamaning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda kiyim modelini to'g'ri tanlash kerak, ya'ni cho'ziluvchan, sitiluvchan gazlamalardan kengroq, burmalangan kiyimlar tikilgani ma'qul. Undan tashqari, kiyimning yoqalari, englari, bortlari, cho'ntak og'izlari ko'p ishqalanadi. Bu erlarga puxta texnik ishlov berish kerak. Aks holda kiyim o'z ko'rinishini yo'qotadi.

E s t e t i k talablar deganda, kiyimning moda yo'nalishiga mosligi, yangi gazlamalardan tikilganligi, yangi bezaklar ishlatilganligi, iste'molchilarning estetik didlarini qondirishi tushuniladi.

II. Ishlab chiqarish talabi deganda buyumni korxonada ishlab chiqarish jarayonidagi yuzaga keladigan talabi tushuniladi. Tikuvchilik

buyumini loyixalashda quyidagilarga ahamiyat beriladi:

1. Bir asos bo'yicha bir necha modellarni tayyorlash mumkin bo'lsin.
2. Kiyimga ketadigan matodan yuqori tejamkorlikda foydalaniladigan bo'lsin.
3. Kiyimni tikishda ishlab chiqarish korxonasi o'zida bor mexanizasiyadan va shart-sharoitlardan to'liq foydalana olsun.
4. Ishlab chiqarish korxonasi tayyorlanayotgan buyum yuqori unumli bulishini e'tiborga olish kerak, natijada mahsulot tannarxi arzon, samaradorligi yuqori bo'ladi.

Tikuvchilik sanoatida qabul qilingan sinflanishga ko'ra kiyimlar 2 sinfga:

- maishiy kiyimlar,
- ishlab chiqarish kiyimlarga bo'linadi.

Maishiy kiyim o'z navbatida ekspluatasiya sharoitiga qarab quyidagi guruxlarga bo'linadi:

- ust kiyimlar (pal'to, kalta pal'to, plashlar, jaketlar, pidjak, kurtka va hokazo),
- engil kiyimlar (ko'ylaklar, bluzkalar, erkaklar ko'ylagi, yubkalar, fartuk va hokazo),
- ich kiyimlar (pijamalar, erkaklar va ayollar ich kiyimlari, cho'milish kiyimlari va hokazo),
- bosh kiyimlar (kepka, furajka, beretka, shapka, shlyapa, panama va hokazo).

Ishlab chiqarish kiyimlari esa quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- maxsus kiyimlar – odamni zararli muhitdan muxofaza qiladi va kishining ish qobiliyatini saqlashga yordam beradi. Ularga kurtkalar, kombenzon, shim, plashlar kiradi,

- forma kiyimlari – temir yo'l ishchilari, harbiylar, aviasiya, daryo va dengiz xodimlari va boshqalar uchun tikiladi. Ularga shinelъ, palъto, kitelъ, shim, kostyum, kuylak, ich kiyim va boshqalar kiradi.

Jins va yosh alomatlariga binoan kiyimlarni quyidagi kichik guruhlariga: erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlariga ajratiladi.

Bolalar kiyimi yoshiga qo'ra o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- chaqaloqlar kiyimi,
- yasli yoshidagi o'g'il va qiz bolalar kiyimi,
- maktabgacha yoshdagi bolalar kiyimi,
- maktab yoshidagi bolalar kiyimi,
- o'smirlar kiyimi.

Kiyimlar yilning qaysi faslida kiyilishiga qarab: yozgi, qishki, bahorgi, kuzgi kiyim turlariga bo'linadi. Bu kiyimlar qaerga kiyilishiga qarab quyidagilarga:

- kundalik kiyim,
- uy kiyimi,
- tantanali kiyim,
- sport kiyimlariga ajratiladi.

Kiyimlar tikiladigan gazlamasining tolasiga qarab: jun, shoyi, ip gazlama, zig'ir tolali gazlamalardan, shuningdek, sun'iy, sintetik va aralash tolali gazlamalardan tikilgan kiyimlarga bo'linadi.

Gazlamani bichishga tayyorlashda uning bo'yi va eni o'lchanadi, nuqsonlari yo'qligi aniqlanadi, g'ijim joylari bo'lsa dazmollanadi. Yirik detallari asimmetrik shaklga ega bo'lgan kiyimlarni bichishda gazlama bir

qavat qilib to'shaladi. Andazalarni gazlamaga joylashtirishda uning guldor yoki sidirg'a, tukli yoki tuksiz ekanligi va h.k.z.ni hisobga olish lozim. Gazlamaning turiga qarab andazalar ham turlicha joylashtiriladi.

Tukli yoki tuksiz, shuningdek har xil tusli tovlanadigan gazlamalar ustiga andaza qo'yishda barcha detallarning andazalari gazlama tuki yuqoridan pastga qarab yotadigan qilib qo'yiladi. Kalta tukli gazlamalar (bobrik, velyur, ip duxoba)dan tikiladigan kiyimlar bundan mustasno. Bunday gazlamalarga andazalarni joylashtirishda ularning tuki pastdan yuqoriga karab turishi kerak. Tuksiz yoki tuki uncha bilinmaydigan gazlamalarga, gullari bir tomonga yo'naltirilgan gazlamalarga, shuningdek rang tusi uncha farq qilmaydigan gazlamalarga kiyimning barcha detallari andazalari bir xil yo'nalishda joylashtiriladi.

Tuksiz va rang tusalari (tovlanishi) bo'lmagan gazlamalarga andazalarni qo'yishda kiyim detallarining andazalari turli yo'nalishda joylashtirilishi mumkin. Katak yoki yo'l-yo'l gazlamalarni bichishda gazlama kataklari yoki yo'llari quyidagicha hisobga olinadi: kiyim old bo'lagida bort ziya bo'yicha, bort adipida latskanlarning tashqi chetlari bo'yicha, kiyim orqa bo'lagida – o'rta chiziq bo'yicha, cho'ntakqopqoqlar, listochkalar, yoqa va kamarlarda asosiy detal bo'yicha, yuqori va pastki qirqimlarda, kiyimning orqa va oldi koketkalarida chetlari bo'yicha moslanadi. Gavdaga yopishib turadigan, Yarim yopishib turadigan kiyimlar orqa bo'lagining o'ng va chap qismlarida gazlama yo'llari simmetrik, koketkalarda esa koketka va asosiy qismlardagi kataklar va yo'llar kiyimning butun eni yoki o'rta qismi bo'yicha mos keladigan qilib joylashtiriladi. Andazalar gazlamaga joylashtirilgandan so'ng chetlari bo'ylab chizib chiqiladi. Bunda maxsus bo'rlar yoki qalamlardan foydalaniladi. CHiziqlarning yo'g'onligi 0,1 sm dan oshmasligi kerak.

Gazlamalarni to'shash usuliga qarab, andazalar har xil qo'yiladi. Gazlamalarni buklab to'shashda gazlamaning eni kichraYadi va detallar soni ikki marta kamaYadi, chunki bunda detallar koplektining faqat Yarmi kiradi, detallarning to'liq komplekti esa ikki buklab, buklangan gazlama polotnosining ikki qatlamini bichgandan keyin hosil qiladi. Ommaviy tarzda ishlab chiqarishda gazlamani buklab to'shash usuli qo'llanilmaydi. Gazlama qoldiqlarini bichish bundan mustasno, chunki bunday kiyimga ketadigan gazlama sarfi ko'paYadi, yirik andazalarni qo'yish, gazlamani to'shashda to'qimachilik nuqsonlarini aniqlash qiyinlashadi va h.k.

Gazlamani yoyib to'shashda andazalarni qo'yish osonlashadi, natijada to'shovchilarning ish unumdorligi oshadi va 1-1,5 % gazlama tejaladi. SHuning uchun bu usul tejamli hisoblanadi. Gazlamaning o'ngini o'ngiga qilib, yoyib to'shashda juft detallar qo'shni polotnolardan komplektlanadi, shuning uchun bunda juft detallarni guldor gazlamalarga joylashtirishga uncha cheklov qo'yilmaydi. Agar qo'shni polotnolarni to'shashda gazlama gullari bir biriga mos kelsa, juft detallarda ham gullar bir-biriga mos keladi. Yakka buyurtmalar bo'yicha kiyimlar tikishda bichiqchi buyurtmachi gavdasidan olingan o'lchovlarga muvofiq kiyim detallarni bo'rlashda qo'yimlarni hisobga olib ketadi.

Detallarning har-xil joylaridan qo'yimlar kattaligi har-xil bo'ladi. Masalan elka choklari, yoqa o'mizi, engning pastki bo'lagidagi tirsak qirqimlari uchun 1 – 1.5 sm, kiyim orqasining o'rta qirqimlari, kiyim oldilarining yon qirqimlari, o'mizlari, eng uchi uchun 2 – 3 sm, etak uchun 4-5 sm qo'yim qoldiriladi.

Astar va qotirma detallarda qo'yimlar avra detallarining qo'yimiga moslab olinadi.

Ommaviy tarzda ishlab chiqarishda kiyimlarni sidirg'a gazlamalardan bichishda hech qaerda deYarli qo'yim qoldirilmaydi. Hozirgi vaqtda faqat yuqori sifatli kiyimlar, erkaklar kostyumlari va ayollar jaketlaridagina qo'yim qoldirishga yo'l qo'yiladi. Bunday kiyimlarning yon choklari va tirsak choklarida 2 sm dan qo'yim qoldiriladi.

Agar gazlama guldor bo'lsa, gullarni mos keltirish uchun quyidagicha qo'yim qoldiriladi: kiyim orqasi va bortlar ostida – gulning 0,5 rapporticha, kiyim oldilari, ustki yoqa, cho'ntak qopqoqlari va ro'para taxlamali yubkalarda – gul rapporticha va h.k. Bunda astar va qotirmaning tegishli detallariga qo'yim qoldirilmaydi.

MAVZU: «Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar. Qo'lda bajariladigan ishlar».

Ishning maqsadi:

1. Asbob va moslamalarni qo'llash.
2. Qo'l qaviqlarining hosil bo'lish jarayoni va qo'lda bajariladigan ishlarning bajarish usullari bilan tanishish.
3. Qo'l qaviqlari turlarini o'rganish va ularni amalda bajarish.

Ishning mazmuni:

1. Manekenlar, turlar, santimetrli lenta, qaychilar, ignalarni to'g'ri ishlatilishini anik o'rganish.
2. Namunalar bo'yicha quyidagi qaviqlarni aniklab berish: sirma qaviq, solqi qaviq, qaviq Yashirin, biriktirma qaviq, yo'rma qaviq, tur qaviq, xalqa qaviq, to'g'ri va shakldor puxtalamlar.
3. Ayrim gazlama parchalarida xar-bir qaviqdan 3-4 qaviq katorlarni bajarish.

Ishni bajarishga tayyorgarlik uchun savollar

1. Qo'l igna turlari, ularning parametrlari va vazifasi.

2. Angishvona turlari, ularning parametrlari va qo'llanishi.
3. Qo'lda bajariladigan ishlarni bajarish uchun qo'llaniladigan asbob turlari (santimetrli lenta, qaychi, bo'rlar, chizg'ich, andaza, to'g'nog'ich, maneken, iz tushirgich) va ularning vazifalari.
4. Vaqtinchalik qaviqlar, ularning parametrlari va qo'llash doirasi.
5. Doimiy qaviqlar, ularning parametrlari va qo'llash doirasi.

Asboblari va materiallari:

1. Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asboblari to'plami.
2. Asboblarni amalda qo'llanilishini tekshirib ko'rish uchun gazlama parchalari.
3. Qo'l qaviqlarining namunalari to'plami.

Uslubiy ko'rsatmalar:

1. Qaviq nomi.
2. Qaviqlarning tuzilishini rasm bilan ifodalash.
3. Qaviqlarni qo'llash doirasini aniqlash va ularni tuzilishini ta'riflaydigan kursatkichlar.
4. Qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlari.

Talaba o'rganish natijalarini 1.1-jadval shaklida ifodalaydi.

1.1-jadval Qo'l qaviq turlari, ularning parametrlari va vazifalari

Qaviq nomi	Rasmi	Namuna	Parametrlari	Qo'llanishi
1	2	3	4	5

Qo'lda bajariladigan ish turlari

Kiyim tikishdagi ishlar ijro etish usuliga karab, qo'lda yoki mashinada

bajariladigan bo'lishi mumkin. Boshdan-oyoq qo'lda bajariladigan barcha operatsiyalar qo'lda bajariladigan ishlar hisoblanadi. Bular igna, qaychi, bo'r yordamida bajariladigan ishlardir, shuningdek, kiyimni ip, bo'r, changdan tozalash kabi ishlardan iborat. Qo'lda bajariladigan operatsiyalarga mashinada bajarishdan ko'ra ko'p vaqt ketadi. Qo'lda bajariladigan ishlar mashinada bajariladigan ishlarga qo'shimcha tarzda ham bo'lishi mumkin (masalan, detalni mashina tepkisi tagiga qo'yishdan oldin uning ikki qismi qirqimlarini bir-biriga to'g'rilash).

Tikuvchilik sanoatining hozirgi darajasida anchagina ishlar qo'lda bajariladi. Masalan, jun gazlamalardan ust kiyim tikishdagi qo'lda bajariladigan ishlar kiyimni bitirish uchun ketgan vaqtning 35-40 foizini tashkil etadi. Ishlab chiqarishga Yangi mashinalar, apparatlar va Yarim avtomatlar joriy qilish natijasida qo'lda bajariladigan ishlar foizi kamayadi, kiyim sifati esa yaxshilanadi.

Qaviqlar va qaviqqatorlar

Gazlamada igna hosil qilgan kushni teshiklar orasida iplar chalishuvining bitta tugallangan tsikli qo'lda bajarilgan bulsa, **qaviq** deyiladi. Ketma-ket takrorlangan qaviqlardan esa qaviqqator hosil bo'ladi.

Qaviqlar tuzilishi jihatidan quyidagi xillarga bo'linadi: to'g'ri qaviq, qiYa qaviq, iroqisimon qaviq, xalqasimon qaviq, xalqa qaviq. Tuzilishi jihatidan qaviqlar oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy qaviqlarga qiYa sirma qaviq, qiYa biriktirma qaviq, to'r qaviq, yo'rma qaviq, tepchima qaviq, to'g'ri sirma qaviq, Yashirin biriktirma qaviq, iroqisimon biriktirma qaviq, solqi qaviq, yolg'on qaviqlar kiradi. Murakkab qaviqlar asosan xalqa qaviqlardan iborat bo'ladi.

Sirma qaviq to'g'ri va qiYa bo'lishi mumkin (1-rasm, 1). Bunday qaviqlar ust kiyimlar tikishda uning detallarini vaqtincha ko'klab qo'yish, ko'ylak tikishda burmalar hosil qilish kabi maqsadlarda ishlatiladi. Ammo

yo'l-yo'l yoki katak gazlamalardan tikiladigan kiyim detallarini ko'klashda ulanayotgan detallar yo'llarini to'g'ri keltirish uchun, yon choklarini ko'klashda mo'ljallab mashina yurgizish uchun to'g'ri sirma qaviq ishlatilishi shart. Sirma qaviqning qanchalik yirik yoki mayda bo'lishi uning nima maqsadda ishlatilayotganiga va gazlamaning turiga bog'liq. Masalan: detallarni solqisiz ko'klanayotganda qaviq yirikligi 2-3 sm, solqi hosil kilib ko'klayotganda esa 1-2 sm bo'ladi. Qaviq detallarni solqisiz sirmalashda 3-5 sm, solqi hosil qilib sirmalashda 1,5-3 sm, bukib ko'klashda esa 1,5-3 sm bo'ladi.

Yo'rma qaviq (1-rasm, 2) detallarning qirqimlari titilib ketmasligi uchun ishlatiladi. Bunda qaviq yirikligi gazlamaning zichligiga bog'liq bo'lib, 0,5-0,7 sm, yo'rma kengligi 0,5 sm bo'ladi.

Yo'rma qaviq chapdan o'ngga tomon solinib, qaviqlar bir tomonga bir xilda og'ib turadi.

Qiya biriktirma qaviq (1-rasm, 3) detallar qirqimlarini bir-biriga ulash uchun (masalan, adip qirqimini bort qotirmasiga, eng qirqimini eng qotirmasiga biriktirish uchun) ishlatiladi. Qiya biriktirma qaviq solish uchun igna ustki gazlama, uning qirqimiga nisbatan 60-70 gradus burchak hosil kilib sanchiladi. Igna ustki gazlamani to'la teshib o'tib, ostki qatlamning yarim qalinligini ilib o'tadi. Qaviq ustki gazlama qirqimidan 0,2-0,4 sm masofada o'tishi kerak.

Yashirin biriktirma qaviq (1-rasm, 4) detallarning chetini bukib asosiy gazlamaga biriktirish uchun (masalan, ko'ylak etagini qayirib tikish uchun) ishlatiladi. Yashirin biriktirma qaviq solish uchun ignani detalning buklangan joyidan 0,1-0,5 sm masofada o'tkazib olib, shu joy ro'parasida asosiy gazlamaning Yarim qalinligini ilib oladi. Har 1 sm da 2-3 ta qaviq bo'ladi.

Iroqsimon biriktirma qaviq (1-rasm, 5) qirqimlari ochiq yoki

yopiq detallarning chetlarini biriktirish (masalan, ayollar paltosi astarining etagini tikish, yoqa qaytarmasi va uchlarini ostki yoqaga tikish) uchun qo'llaniladi. Iroqsimon qaviqlar boshqa qaviqlar singari o'ngdan chapga emas, balki chapdan o'ngga bajarilib, ignaning sanchilishi esa o'ngdan chapga bo'ladi. Detalning buklangan qirqimi to'la teshilib, detal asosiy gazlamasining Yarim qalinligi ilib olinadi. YUqoridagi va pastdagi teshiklar bir-birining ro'parasida bo'ladi. Qaviqning yirikligi gazlama zichligiga bog'liq bo'lib, 0,5-0,7 sm ga etadi.

Solqi qaviq (1-rasm, 6) belgi chiziqlarni bir detaldan ikkinchisiga (masalan, cho'ntaklarning joylanish chizig'ini) ko'chirish uchun ishlatiladi. Solqi qaviqqatori oldindan belgilab qo'yilgan chiziq bo'ylab tikilib, qattiq tortilmaydi. Bunda solqining uzunligi 0,5-0,7 sm, qaviq takrorligi esa 5sm da 4-5 tadan bo'ladi. O'ngi ichkari tomon qilib qo'yilgan detallar orasi ochilib, detallar orasida ko'ringan iplar qaychi bilan qirqiladi: shu qirqilgan iplar ko'chirilgan chiziq konturlarini tashkil etadi. Ommaviy kiyim tikishda solqi qaviq ishlatilmaydi, chunki bunda yordamchi andazalardan foydalanib, belgilar bo'r bilan chizib olinadi.

Tepchima qaviq (1-rasm, 7) ikkita detalni bir-biriga ulashda detallarga qo'shimcha qayishqoqlik berish va ularning ma'lum holatda saqlanib turishi (ostki yoqani, adip qaytarmasini tepchib qavish) uchun ishlatiladi. Tepchib qavishda ust tomondagi gazlama to'la teshilib, ost tomondagi gazlamaning Yarim qalinligi ilib olinadi. Tepchima qaviqlar detalning o'ng tomonidan ko'rinmaydigan bo'lib, teskari tomondan esa qiYa qaviqlar kabi ko'rinadi. Gazlama qalinligiga qarab xar bir qaviq 0,5-0,7 sm bo'lishi mumkin. Qaviqlar orasidagi masofa 0,4-0,5 sm bo'ladi.

Yolg'on qaviq (1-rasm, 8) gazlamalar chetini zichlashtirish, detal (bortlar, adip qaytarmasi, yoqa va boshqalar) shaklini mustahkamlash uchun ishlatiladi. Ip taqilgan igna gazlamaga olg'a tomon og'diribroq sanchilib,


pastdagi gazlamaning Yarim qalinligi ilib olinadi. Ignaning navbatdagi sanchiladigan joyi ustki gazlamadan igna chiqqan joydan 0,5-1,0 mm masofada bo'ladi. Iplar gazlamaning o'ngi tomonidan ko'rinmaydigan bo'lishi kerak. YOlg'on qaviqqa 33, 65, 75- ipak iplar ishlatilib, qaviqning yirikligi 0,3-0,4 sm bo'ladi.

To'rsimon qaviq (1-rasm, 9) o'miz choklarini mahkamlashda, bort qotirmasini va astarini eng o'tkazilgan choklarga tikish va shu kabilarda ishlatiladi. To'rsimon qaviq hosil qilishda igna birinchi o'tkazilgandan keyin u yana gazlamaga yarim qaviq bo'yicha beriroqqa sanchiladi. Qaviq yirikligi 1-1,5 sm., bunda 10-30 ip bilan qaviladi.

To'r qaviq (1-rasm, 10) mashinada baxyaqator yuritish qiyin bo'lgan yoki yuksakroq cho'ziluvchanlik talab etadigan choklar bor joylardagi detallarni doimiy ulash uchun ishlatiladi. To'r qaviq hosil qilishda ip gazlama qalinligidan to'la o'tib qaytadi va Yana gazlamadagi oldingi teshikdan o'tadi. To'r qaviqning gazlama o'ngi tomonidagi tashqi ko'rinishi mashina baxyaqatoriga o'xshaydi. Qaviqning teskari tomondagiga nisbatan ikki barobar ortiq bo'ladi. Qaviq yirikligi gazlama qalinligiga bog'liq bo'lib, 0,1-0,4 sm ga etadi.

Xalqa qaviq (1-rasm, 11) izmalarni yoki titiladigan gazlamadan olingan detallar qirqimlarni yo'rmash uchun ishlatiladi. Xalqa qaviq hosil qilish uchun igna gazlamaga uning chetidan 0,3 beriroqqa sanchiladi, keyin ignaning ko'zi tomonidagi ipni igna uchiga chapdan o'ngga aylantirib tashlab, hosil bo'lgan xalqa bir maromda tortiladi. Qaviqlarni bir-biridan bir xil masofada joylashtirib, gazlamaning o'ngi tomonda jimjima xalqa hosil qiladi. Yo'rma xalqa mustaxkamroq bo'lishi uchun va hosil bo'ladigan jimjima bo'rtibroq turishi uchun ustki kiyim izmalari bo'ylab ularning qirqimidan 0,1-0,2 sm masofada ikki buklangan 10-20 ip yoki maxsus shnur qo'yiladi. Xalqa qaviqning takrorligi uning nimaga muljallanganligi va ishlov

beriladigan izmaning kandayligiga bog'liq. Kiyimni tugmalaydigan izmani yo'rmashda qaviq zichligi 1smda 6-8 ta, karkasli izmalarda 1sm da 12-15 ta bo'ladi.



UMUMIY XULOSALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatish ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining milliy-madaniy va sosial-psixologik xususiyatlarini hisobga olmay turib, ijodkor va ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni shakllantirish mumkin emas.

1. To'plangan ma'lumotlarning guvohlik berishicha, uzoq tarixga ega o'zbek xalqining ijtimoiy-madaniy muhiti, turmush tarzi, madaniyati, ta'limi, milliy ongi va o'z-o'zini anglashi, milliy xarakteri va o'ziga xosligi boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatishni ilmiy o'rganish ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi aniqlashga negiz hozirladi.

2. Mavzu xususiyatiga daxldor ta'lim va tarbiyaning inson kamolotida tutgan o'rni, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish qonuniyatlari, ustoz-shogird munosabatlari, hamkorlik faoliyati hamda unga qo'yiladigan asosiy talablar boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatish tufayli o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi faoliyatida samarali foydalanish imkoniyatiga ega.

Ushbu ko'zda tutilayotgan imkoniyatlar ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida yuzaga keladigan muammolar, ya'ni noxush holatlarning oldini olish va bartaraf qilish imkoniyatiga egadir.

Keltirilgan ma'lumotlar va xulosalar asosida o'qituvchilar boshlang'ich sinf o'quvchilarining hamkorlikda ta'lim olishlarini tashkil etishlari mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatish tizimi va mahalliy sharoit hisobga olinadi. Bu ishlar o'qituvchidan ma'lum darajada metodik tayyorgarlik va mahoratni talab etadi.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gazlama turlari va ulardan turli buyumlar yasashni o'rgatish yosh avlodni kichik yoshdan boshlab mehnatsevarlikka o'rgatishga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – 62 b.
2. Karimov I.A Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. – 78 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat», 2008. -176 b.
4. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: SHarq, 1999. –228 b.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003. –38 b.
6. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: SHarq NMK, 1997. – 29 b.
7. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: SHarq NMK, 1997. –61 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 21 maydagi “2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida”gi Farmoni // Ma'rifat. –Toshkent, 2004 yil 22-may.
9. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. – Toshkent: SHarq, 2004. –400 b.
10. Arziqulov D. N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. T.: 2002,- 21 bet
11. Jo'rayev S. A. “Tarbiyaviy darslarni o'tish uchun sinf rahbari uchun qo'llanma”, Toshkent “O'qituvchi”1994y , 134 b
12. Jumaniyozova M.”Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchiga qo'yiladigan talablar” “Uzluksiz ta'lim”2005y 4 son 40-bet.

13. Ibragimova M. SHermatov X. Ta`lim jarayonida faol usullarni qo`llash. - // Uzluksiz ta`lim. – Toshkent, 2005. 5-son 16-bet.
14. Mardonov SH. YAngi ta`limiy qadriyatlar asosida pedagog qadriyatlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – T.: «Fan», 2006. – 226 b.
15. Yo`ldoshev J.G`, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: - T.: «O`qituvchi», 2004 y.
16. «Ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari» mavzusidagi seminar-trening materiallari.- T., 2002 y.
17. Ta`limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, echimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- T.: O`z PFITI, 1999 y.
18. Tolipov O`. Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbio`iy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 264 b.
19. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-do`stona muhit yaratish omili. -T.: YUNISEF, 2005 y.
20. Farberman B. Ilg`or pedagogik texnologiyalar.-T.: «Fan», 2000 y.
21. O`zbek pedagogikasi antologiyasi (1-jild).-T.: «O`qituvchi», 1995 y.
22. Qurbonov SH., Seytxalilov E. Ta`lim sifatini boshqarish. -T.: «Turon-Iqbol», 2006 y.
23. M. Ochilov. “YAngi pedagogik texnologiyalar” / ko`llanma. - Karshi: Nasaf, 2000.
24. N. Saidaxmadov, M. Ochilov. “YAngi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyixasi”. - T.: XTB RTM, 1999.
25. N.N. Azizxo`jaeva. “O`kituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi”. - T. 2000
26. Ta`lim menejmenti (bolaga do`stona munosabatdagi maktabni boshqarish) / Yo`ldoshev J. va boshqalar. – T.: Nikon-print, 2006. –B. 40-44.
27. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri - T.: Abdullo Qodiriy, 1993.- 224 b.
28. Abu Rayhon Beruniy. Tarvixlar (“Javohirot kitobi”dan “Minerologiya”) - T.: Meros, 1991. - 13 b.

29. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar. (To'plovchi Irisov A) – T.: 1973. – 103b.
30. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: O'qituvchi, 1992. – 160b.
31. Avesto. (Asqar Mahkam tarjimasi)-T.: SHarq, 2001. - 384b.
32. Aliqulov X. SHarq mutafakkirlari axloq haqida. – T.: 1979. - 48b.
33. A`zamxo`jaeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi. Psixol. fanl. dissertasiyasi. -T.: 2002. – 155 bet.
- Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi.- T.: O'qituvchi , 1997 - 272b.